SHERDOR

Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities



Volume 1 | Issue 2 | 2026

ISSN 3093-9372

Tashkent - 2026

Sherdor: Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities

Sherdor: Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities (CAJSSH) is officially registered as an online mass media outlet by the Inspectorate for Control in the Sphere of Informatization and Telecommunications under the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan, pursuant to Registration Certificate No. 1668282. The journal is published under the title "Sherdor: Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities" and is authorized to publish scholarly content in Uzbek, English, and Russian.

Editor-in-Chief
Ismoyilov Ubaydulla

Scientific Editor
Abduganiev Ahrorjon

Honorary Editors

Acad. Ahmadali Askarov
National University of Uzbekistan for Pedagogy, Uzbekistan

Prof. Rustam Suleymanov
National University of Uzbekistan, Uzbekistan

Editorial Board:

Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Feruza Shamukaramova (Prof. Dr.)
Nigora Egamberdieva (Prof. Dr.)
Azimkhoja Otakhojaev (Prof. Dr.)
Zhenishbek Duysheev (Prof. Dr.)
Malgorzata Anna Kot (Prof. Dr.)
Osman Karatay (Prof. Dr.)
Behzod Isabekov (Dr.)
Dilshod Tukhtasinov (Dr.)
Dilafruz Karimova (Dr.)

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: sherdorjournal.org
E-mail: editor@sherdorjournal.org

Contents

Xakimova Mahruya Abdulhayovna 5
A New Worldview in Youth Activism in Uzbekistan

Tukhtasinov Dilshod 8
Typological and Comparative Analysis of Some Vessels of the Open and Closed Type Found in the Lower Layer of the Uchtepa-2 Archaeological Monument

Saydullayev Chingiz Xamidullayevich 13
The Impact of Corporate Social Responsibility Strategies on Corporate Image and Sustainable Development

Rustamova Gulmira 15
The Impact of Women′s Participation in the Labor Market on Family Relationships

Pulatov Otabek 20
The Study of Craftsmanship Treatises During the Independence Period

Bekjon Kurbonov 23
State religion relations in Uzbekistan in the post independence period

Quvondiqov Mukhriddin 27
Planning the Daily Training Process for Para Judo Athletes in Training Groups

Merjen Seydullayeva 30
Digital History: Opportunities and Prospects of Modern Information Technologies in the Study of the History of Lebap Province

Safarov Abdulbosid 33
The Role of Amir Timur′s Spiritual Mentors in Establishing and Governing a Just State: The Case of Mir Sayyid Baraka

Maksadov Allanur 36
The Jadid Movement and the National Awakening in Turkestan (Late 19th – Early 20th Centuries)

Rozay Rustemova 40
The Development of Science in Central Asia under the Influence of Islamic Civilization

Samadov Sanjar 47
The Place of Khayriddin Sultan′s Literary Works in the Uzbek Literary Process

Jorayev Yhlas 49
Sogdian Merchants and the Silk Road: Central Asia′s Role in East–West Connections (2nd Century BCE – 8th Century CE)

Contents

Abbosbek Muminov **53**
Personal Suffering and National Memory in the Poetry of Iqbol Mirzo

Juraev Shohruh Bakhtiyorovich **62**
Semantic Transformation of Latin Loanwords in the Economic and Financial Domain in Uzbek Official Documents

A New Worldview in Youth Activism in Uzbekistan

Xakimova Mahruya Abdulhayovna
PhD in Political Science
Senior Lecturer at TIIAME National Research University
Tashkent, Uzbekistan
mahruya72@gmail.com | ORCID: 0009-0001-8961-9576

DOI: https://doi.org/10.68358/namv7637

Abstract. *This article examines ways to enhance the social and political engagement of young people in Uzbekistan, where the foundations of civil society are being established. Particular attention is paid to fostering a sense of duty and responsibility towards the nation, the people, and society, as well as developing firm convictions, personal ideals, and an active approach to life. The article also addresses the development of the social sphere in Uzbekistan and highlights the importance of changes in young people's thinking in enabling New Uzbekistan to secure a worthy place in the international community.*

Keywords: *New Uzbekistan, Youth Affairs Agency, Development Strategy of Uzbekistan, Strategy of Actions, civil society, rule of law, youth thinking, political activity, public organizations, national values, awareness of national identity*

O‘zbekistonda yoshlar faolligidagi yangicha dunyoqarash

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati asoslari shakllanayotgan Respublikamizda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, ularda millat, xalq va jamiyat oldidagi burch hamda mas’uliyatini yurakdan his qilish tuyg‘ularini kamol toptirish hamda ularning ongu shuurida mustahkam hayotiy pozitsiyasi e’tiqodini hamda maslagini shakllantirish haqida so‘z boradi. Shu bilan birga yoshlar tafakkuridagi o‘zgarishlar Yangi O‘zbekistonni jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olishida muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, Yoshlar ishlari Agentligi, O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi, Harakatlar Strategiyasi, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, yoshlar tafakkuri, siyosiy faollik, jamoat tashkilotlari, milliy qadriyatlar, milliy o‘zlikni anglash*

Mamlakatimizda aholi real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy infratuzilmalar tarkibini takomillashtirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan va sport sohalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar tasdiqlanib, hayotga izchillik bilan tatbiq qilinmoqda. Bu, o‘z navbatida, yangicha dunyoqarash va demokratik tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarning yangi avlodi shakllanishi uchun mustahkam tayanch vazifasini bajaradi. Ayni paytda, “Yoshlarga oid davlat siyosati”da belgilab qo‘yilgan dolzarb vazifalarni izchil va tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirishning yo‘llari va vositalari ishlab chiqilmoqda. Bu haqda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftihor bag‘ishlaydi”[1] – deb ishonch bildirishi bejiz emas. Zero, mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarimizga qaratilayotgan e’tibor yoshlarni fuqaro sifatida tarbiyalash va ularning Vatanni muhofaza qilish yo‘lidagi muqaddas burchini anglashga zamin yaratadi. Respublikamizda 2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilinishi ham “Inson qadrini ulug‘lash, aholimiz manfaatlarini ta’minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamiz”[2] degan fikrga hamohangdir.

Dunyo miqyosidagi murakkab jarayonlar va jamiyatimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlili asosida “Inson qadri uchun” tamoyiliga muvofiq xalqimizning farovonligini yanada mustahkamlash, iqtisodiyot yo‘nalishlarini transformatsiya qilish va respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash hamda qonun ustuvorligi asosida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan o‘ziga xos taraqqiyot strategiyasini vujudga keltirdi. Prezident ta’kidlaganidek: “Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni ... tushunamiz”[3].

Fuqarolik jamiyati asoslari shakllanayotgan respublikamizda yoshlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, ularda millat, xalq va jamiyat oldidagi burch hamda mas’uliyatni yurakdan his qilish tuyg‘ularini kamol toptirish hamda ularning ongu shuurida mustahkam

hayotiy pozitsiyasini, e’tiqodini hamda maslagini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Yoshlar va ijtimoiy taraqqiyot xususida o‘ylar ekanmiz, jamiyatda ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabat bildira oladigan, unda ishtirok eta oladigan, ushbu jarayonlar samaradorligini oshira oladigan, butun imkoniyatini ishga soladigan yoshlar qatlamining siyosiy tafakkurini o‘stirish lozim. Insonning murg‘ak yoshidan yetarli darajada biologik, fiziologik va intellektual rivojlanishini ta’minlash jamiyatda aholining ijtimoiy-siyosiy faol qatlamining imkoniyatlarining kengayishiga yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat ma’naviy qiyofasining barkamollashishiga, intellektual salohiyatining rivojlanishiga, aqliy qudratining takomillashishiga olib keladi. Koshifiy o‘zining Axloqi muhsiniy asarida yozishicha, Parviz o‘z o‘g‘liga shunday nasihat qilgan ekan: “Ey farzand, sen ra’iyatga hokimsan, xuddi shunday aqling ham senga hokim. Ra’iyat sening farmoningdan chiqmagani kabi, sen ham ulardek aqling hukmidin chetga chiqmagin. Muhim ishni bajarish senga to‘g‘ri kelsa, shoshilmay va aql hukmi bilan maslahat qilgin”[4].

Biz jamiyatga qarab istiqbolni belgilaydigan va ijtimoiy mo‘ljallarni aniq hisobga oladigan avlodga tayanamiz. Bu esa bevosita bilim va tafakkurni taqozo etadi. Chunki hamma vaqt aqlli insongina mo‘ljallarni belgilashda adashmaydi, mavjud ijtimoiy jarayonlarni to‘g‘ri baholay biladi va unga munosabat bildira oladi. Ana shunday kishigina jamiyat oldidagi javobgarlikni va o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni chuqur anglaydi. Demak, intellektual jihatdan baquvvat shaxsda jamiyat ishi uchun daxldorlik tuyg‘usi, millat taqdiri uchun javobgarlik hissi, burch va mas’uliyat tushunchalari yorqinroq namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, Bedil “Aqlsiz iymon xuddi oynasiz javohirday asossiz (mavhumi) yo‘q naqshdir va aqlsiz hayo xuddi manbai bo‘lmagan suv kabi ma’dum-yo‘qlikdir”[5], – deb ta’kidlaydi.

Bugun biz yoshlar haqida, yoshlarning dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy olami, odam va olam, inson va jamiyat xususidagi fikrlari haqida o‘ylar ekanmiz, ularning har tomonlama barkamol bo‘lishini ta’minlashimiz zarur. Bu esa o‘z-o‘zidan yuksak bilim saviyasini egallashni, fan yutuqlarini o‘zlashtirishni, ma’rifatli va barkamol shaxs bo‘lishni taqozo etadigan hodisa.

Har qanday mamlakatning taraqqiyoti davomida yosh avlod bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi. Bunday muammolar ichida eng dolzarblari, eng muhimlari ajralib turadi va bular yoshlar muhitida mavjud turli moyillik va o‘ziga xosliklarni ifodalaydi. Chunonchi, yoshlar o‘z hayotlarining asosiy jihatlariga, ayniqsa, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy maqom, madaniyatlilik darajasi, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muassasalarning ahvoliga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga befarq emas. Shu bilan birga ularni ma’lum davr nuqtayi nazaridan o‘zgartirishga, rivojlantirishga, yangi mazmun kasb etishga o‘zlarida moyillik sezishadi. Yoshlarda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, siyosiy jarayonlarga sezgirlik, harakatlardagi ildamlik va sog‘lom fikrlashga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalash ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta’minlaydi.

Yoshlar muhitida mavjud bo‘lgan bunday jihatlar aksariyat hollarda e’tibordan chetda qolib ketishi mumkin, ya’ni ko‘pincha yoshlarga siyosiy bilimi, tajribasi yetarli bo‘lmagan, har qanday ishni uddalay olmaydigan, hali pishib yetilmagan navnihol deb qaraladi va ularning real ijtimoiy-siyosiy faolligi, jamiyatda zamon talablariga mos ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi yangi kuch sifatidagi roli unutib qoldiriladi. Shu bilan bir qatorda, yoshlarning jamiyatdagi barqarorlikka ziyon yetkazadigan xatti-harakatlari va faoliyatlariga ayrim hollarda beparvo qarashlar ham mavjud. Bunday qarama-qarshi tendensiyalar vaziyatini imkoni boricha o‘rganish, tahlil va tadqiq etishni, shuningdek, ushbu jarayonda vujudga keluvchi muammolarni aniqlab, ularni hal etish yo‘llari xususida tegishli xulosalar chiqarishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda yoshlar hayotiga doir qonunlar qabul qilinishi, ularning haq-huquqlari belgilab berilishi va, albatta, har bir yoshning mazkur jamiyat fuqarosi sifatida siyosatda faol ishtirok etishini e’tiborga olish yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Demak, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, siyosiy madaniyatlilik darajasining ko‘tarilishi ularning barkamol avlod sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda yoshlarning barkamol avlod darajasiga ko‘tarilishi, siyosiy faol fuqaroga aylanishida siyosiy ta’lim-tarbiyaning to‘g‘ri amalga oshirilishi har jihatdan muhim. Siyosiy ta’lim-tarbiya – bu ijtimoiy-siyosiy faoliyatda amaliy iqtidorning tarkib topishi, siyosiy harakat, faol hayotiy pozitsiyani vujudga keltirishdir. Shu o‘rinda, mamlakatda mavjud jamoat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish zaruriyati paydo bo‘ladi. Bu tashkilotlar yoshlarning qiziqishlari, intilishlari, turli sohalardagi qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini yaratib berish vositasi hisoblanadi.

Jamiyat hayoti sermazmun va murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, bu turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi munosabatlarda ular manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy tuzilmalar faoliyatida namoyon bo‘ladi. Bu fikrlar xilma-xilligi va plyuralizm bilan bog‘liq, albatta. Hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida, Vatan himoyasidek

sharafli vazifani ado etishda millionlab yoshlarimiz sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilmoqda. Siyosiy saviyasi yetuk, mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega yuzlab yigit-qizlar parlamentimiz va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining a'zosi sifatida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat idoralarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatmoqda[6].

Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim"[7]. Binobarin, Prezident ta'biriga ko'ra, milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda. Bularning barchasi biz uchun ogohlik qo'ng'irog'i bo'lib yangrashi zarur.

Shuni alohida qayd etish joizki, ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat bo'ladi. Siyosatshunoslar o'rtasida: "Sen uxlaganingda, dushman uyg'oq bo'ladi", degan gap bor. Ayniqsa, hozirgi zamonda, boshqa xalqlar katta-katta marralar sari intilayotgan bir paytda ma'naviy jihatdan g'aflatga botib, "uxlab yotish"ga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Barcha fojia va muammolar, Vatanga, millatga, kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi. Shu bilan birga Shavkat Mirziyoyev o'z fikrini davom ettirar ekan, yana bir bor aytaman, dunyodagi qaltis vaziyat, siyosiy "o'yin"lar barchamizni sergaklikka undashi kerak. Ma'naviy-ma'rifiy sohada oldimizda turgan eng muhim vazifa shuki, jahonda kechayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni chuqur tahlil qilib, ulardan xulosa chiqargan holda, yo'limizni to'g'ri tanlashimiz zarur ekanligini barcha yurtdoshlarimizga ogohlik sifatida aytib o'tgani bejiz emas. Davlat va jamiyat qurilishi borasida bu yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlar Taraqqiyot strategiyasidan kelib chiqadigan vazifalarda o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 milliondan ortiqligini ta'kidlagan holda, bu aholining qariyb 55 foizini tashkil etishini[8] aytib o'tish o'rinli. Zamon talablarini ilg'ash va amalga oshirish, soha va tarmoqlarni yetakchi darajaga olib chiqishda bu juda katta tayanch, bebaho xazinadir.

Shu bilan birga, yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ishtirok etish ko'nikmalari endigina shakllanayotgan qatlam bo'lib, ularga ta'sir ko'rsatish osonroq kechadi. Ular jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning davomiyligi va barqarorligini ta'minlab beruvchi, uning istiqbolini belgilovchi yetakchi kuch sanaladi. Yoshlar jamiyatning serg'ayrat, shijoatkor, intiluvchan va tashabbuskor qatlami bo'lib, ular faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish jamiyatdagi islohotlarning yanada demokratlashishiga sabab bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, yoshlar jamiyat hayotida o'zining muhim o'rniga ega va o'z taqdiri haqida qayg'uradigan har bir millat, avvalo, yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratishi tabiiy. Shuning uchun har millat va har bir davlat o'z yoshlari ijtimoiy qiyofasining shakllanishiga befarq bo'lmagan. Hozirgi kunda ham yoshlar turli sohalardagi tadqiqotlarning obyektiga aylanib bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan fikrlarda tilga olingan jihatlar, shubhasiz, Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning xarakterida, ularning ma'naviy ichki dunyosida shakllangan fazilatlar bo'lib, yoshlarimiz o'zlarining shu jihatlari orqali dunyoda o'zbek millatini namoyon etmoqdalar. Bu fazilatlarni yoshlarimizda yanada kengroq rivojlantirish va to'g'ri yo'naltirib borish barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

References

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent - «O'zbekiston» - 2017. 145 – bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigi. https://president.uz/uz/lists/view/4105. 31.12.2023, 23:55
3. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi
4. Koshifiy H. V. Axloqi Muhsiniy. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. 2010. -B. 122.
5. Mo'minov I.M. Tanlangan asarlar. T.1. – T., 1969. – B.94.
6. Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuni munosabati bilan O'zbekiston yoshlariga tabrigi. 29.06.2020.
7. Mirziyoyev Sh. Milliy tarqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. 124-bet.
8. Mirziyoyev Sh. Milliy tarqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. 124-bet.

Typological and Comparative Analysis of Some Vessels of the Open and Closed Type Found in the Lower Layer of the Uchtepa-2 Archaeological Monument

Tukhtasinov Dilshod
Head of the Department of Archaeology Namangan State University Namangan, Uzbekistan
dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.68358/cagrg571

Abstract. *This article examines pottery materials discovered in the lower stratigraphic layer of the Uchtepa-2 archaeological site, which is part of the Uchtepa–Buloqmozor complex, focusing on open-type (bowls) and closed-type vessels, their typology, and comparative analysis. The study reveals that the site consists of three cultural layers, and the materials from the lowest layer indicate that the area was inhabited as early as the 3rd–2nd centuries BCE. The paper analyzes the morphological features of the ceramics, the level of technological craftsmanship, the methods of slip application, and the composition of the clay. Furthermore, the identified vessels are compared with analogous materials from other archaeological sites in the Fergana Valley (Mingtepa, Akhsikent, Eylaton, Kuyultepa, etc.), allowing for the determination of their cultural and chronological context. The results of the study are of significant scientific importance for understanding the development of pottery traditions and production technologies in the ancient period of the region.*

Keywords*: Uchtepa-2, monument, stratigraphy, pottery, bowl, closed type, clay, Axsikent, Mingtepa, Eilaton*

Uchtepa-2 arxeologik yodgorligining quyi qatlamida uchratilgan ochiq va yopiq turdagi ba’zi idishlarning tipologiyasi va qiyosiy tahlili

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Uchtepa–Buloqmozor majmuasiga kiruvchi Uchtepa-2 arxeologik yodgorligining quyi stratigrafik qatlamidan aniqlangan kulolchilik buyumlari, xususan ochiq (piyola) va yopiq (kosa) turdagi idishlarning tipologiyasi hamda qiyosiy tahlili yoritiladi. Tadqiqotlar natijasida yodgorlik uchta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlanib, eng quyi qatlam sopollari asosida hududning miloddan avvalgi III–II asrlardan boshlab o‘zlashtirilgani ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada sopol buyumlarning shakliy xususiyatlari, texnologik ishlanish darajasi, angob berish usullari va xom ashyo tarkibi tahlil qilinadi. Shuningdek, aniqlangan idishlarning Farg‘ona vodiysidagi boshqa arxeologik yodgorliklar (Mingtepa, Axsikent, Eylaton, Kuyultepa va boshqalar) materiallari bilan qiyosiy o‘xshashliklari ko‘rsatilib, ularning madaniy-xronologik o‘rni belgilab beriladi. Tadqiqot natijalari hududda antik davr kulolchilik an’analari va ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Uchtepa-2, yodgorlik, stratigrafiya, kulolchilik mahsulotlari, kosa, yopiq tur, loy, Axsikent, Mingtepa, Eylaton*

Kirish. Markaziy Osiyo hududi qadimdan rivojlangan kulolchilik an’analari bilan ajralib turadi. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har qanday qadimgi manzilgoh – u shahar, qishloq yoki qo‘rg‘on bo‘lishidan qat’i nazar – eng avvalo sopol buyumlar majmuasi orqali o‘rganiladi. Sopol idishlar nafaqat moddiy madaniyat namunasi, balki jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, kulolchilik mahsulotlarining texnologik xususiyatlari, shakl va bezaklari orqali muayyan tarixiy davrlar va madaniy jarayonlarni aniqlash imkoniyati mavjud. Antik davrda, xususan yunon-makedon yurishlaridan so‘ng O‘rta Osiyo hududida kulolchilik ishlab chiqarishida sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan. Bu jarayon yangi shakl va tipdagi idishlarning paydo bo‘lishi, ishlab chiqarish texnologiyasining takomillashuvi hamda hududiy kulolchilik markazlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayonlarning izlari Farg‘ona vodiysidagi arxeologik yodgorliklar, jumladan Uchtepa-2 yodgorligi materiallarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi Namangan viloyatining Norin tumanida joylashgan bo‘lib, stratigrafik jihatdan uch madaniy qatlamdan iboratligi aniqlangan. Yodgorlikning eng quyi qatlamlari ilk antik davrga oid bo‘lib, hududning miloddan avvalgi III–II asrlarda o‘zlashtirilganligini ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi aynan shu quyi qatlamdan aniqlangan ochiq va yopiq turdagi sopol idishlarni tipologik jihatdan tasniflash hamda ularni Farg‘ona vodiysidagi boshqa yodgorliklar materiallari bilan qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Uchtepa-2 yodgorligidan topilgan kulolchilik buyumlarini o‘rganishda Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, S.S. Kudratov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Norin daryosi chap sohilidagi manzilgohlar keramikasi keng qamrovda

o‘rganilib, ularning xronologik va tipologik xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu ishlar Uchtepa-2 sopollarini davrlashtirish va analogiyalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. B.X. Matboboyev, Chen Ling, M.X. Isamiddinov va boshqalar tomonidan Mingtepa yodgorligida olib borilgan qazishmalar natijalari Farg‘ona vodiysi antik davr kulolchilik an’analarini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlarda aniqlangan sopol buyumlar shakli, angob berish usuli va texnologiyasi jihatidan Uchtepa-2 materiallari bilan yaqin o‘xshashliklarga ega. Shuningdek, M.X. Isamiddinov, B.X. Matboboyev va T. Kuchkarov tomonidan Kuyultepa yodgorligi keramikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishda sopol buyumlarning tipologiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasi tahlil qilinib, hududiy kulolchilik an’analarining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Sultonobod, Simtepa, Axsikent kabi yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar (B. Abdulgaziyeva, N.G. Gorbunova, V.I. Kozenkova, A.A. Anarbayev va boshqalar) ham Farg‘ona vodiysi kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu yodgorliklardan topilgan sopol buyumlar Uchtepa-2 materiallari bilan tipologik va texnologik jihatdan qiyoslash imkonini beradi. Bundan tashqari, Marg‘ilon vohasi va Janubiy Farg‘ona hududidagi Sarvontepa, Qizlartepa hamda Karkidon guruhi yodgorliklari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar hududiy madaniy aloqalar va kulolchilik an’analarining tarqalish arealini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar Uchtepa-2 yodgorligi sopollarini kengroq mintaqaviy kontekstda o‘rganish, ularning xronologiyasi va madaniy mansubligini aniqlashda muhim nazariy va metodologik asos yaratadi.

Tahlil va natijalar

“Uchtepa-2” obyektining kulolchilik mahsulotlari.

Tadqiqot olib borilgan Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi Namangan viloyati Norin tumanidagi Uchtepa qishlog‘ida, Namangan-Haqqulobod avtomagistral yo‘lining chap tomonida, dengiz sathidan 419 metr balandlikda joylashgan. Yodgorlik joylashgan hudud Farg‘ona vodiysining shimoli-sharqiy qismi, aniqrog‘i, ikki daryo orasi – Norin va Qoradaryo oraliq hududlari hisoblanib, o‘rta asrlarga oid yozma manbalarda Miyon Rudon deb nomlanadi[1].

Ushbu yodgorlikda 2019–2021-yillarda akademik A.Asqarov boshchiligida o‘tkazilgan tadqiqotlar jarayonida yodgorlikning yuqori qatlamidan to quyi qatlamlarigacha stratigrafik va planigrafik qazishma ishlari amalga oshirildi. Qazishma jarayonlarida yodgorlik 3 ta stratigrafik qatlamdan iborat ekanligi aniqlandi. Yodgorlikning birinchi, eng quyi qatlamlarida ilk antik davrga oid sopollar mavjud bo‘lib, fikrimizcha ushbu hudud mil. avv. III-II asrlardayoq o‘zlashtirilganligidan dalolat beradi. Ikkinchi — o‘rta madaniy qatlam so‘nggi antik davrga tegishli ekanligi aniqlanib, ushbu qatlamda uchratilgan sopol buyumlarning ko‘pchiligi qoramtir, qisman qizg‘ish va jigarrang angobli turli xil idish siniqlaridir. Ularning tana devori ilk antik davr keramikasiga nisbatan qalinroq, shaklida ham dag‘allashish elementlari uchraydi. Uchinchi — yuqori madaniy qatlam bag‘rida uchratilgan kulolchilik mahsulotlari antik davr sopollaridan keskin farq qiladi. Ular asosan qo‘lda yasalgan qo‘pol sopol buyumlardir. Sopollar sifatining dag‘allashishi bu zaminga Sirdaryoning shimoli-sharqidan kirib kelgan turkiyzabon ko‘chmanchi chorvadorlarning ta’siri bo‘lsa kerak. Haqiqatda, miloddan avvalgi III-II asrlardan boshlab asta-sekin bu zaminga turkiy tilli xun qabilalari kirib kela boshlaydi, Toshkent vohasi, umuman Sirdaryoning o‘rta havzasida o‘zbek xalqining o‘troqlashgan asosini tashkil etgan Qovunchi madaniyati, qangarlar tashkil topadi[2].

Quyi qatlam sopol idishlarining tipologiyasi va qiyosiy tahlili.

Uchtepa-2 yodgorligi quyi qatlamlaridan topilgan kulolchilik mahsulotlari ichida og‘zi keng ochiq, shakli konussimon piyola va kosalar parchalari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular asosan kulolchilik charxida, juda nafis qilib ishlangan. Idishlar ichki va tashqi tomondan silliqlanib, asosan qizg‘ish, qisman och va to‘q jigarrang angob bilan qoplangan. Loyi yaxshi qorilgan, singan qirralari juda o‘tkir, sopolni qo‘l bilan chertganda jarangdor ovoz eshitiladi. Loyi tarkibida luxning kuydirilgan oppoq kuli va ba’zilarida ohak moddasi izlari uchratiladi. Ushbu turga kiruvchi ba’zi bir idishlarni tavsiflashni joiz deb hisoblayman.

Ochiq turdagi piyolalar. *Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi quyi qatlamlari sopollar majmuasida o‘ziga xos miniatyur (kichik hajmdagi) idishlar aniqlangan bo‘lib, ulardan asosan dorivor suyuq modda saqlashda foydalanilgan. Idishning ichki va tashqi qismlariga och qizg‘ish angob berilgan, biroq ichki tomoni olov ta’sirida qoramtir tus olgan. Bu holatni ikki xil izohlash mumkin. Birinchidan, idish maxsus kichik hajmdagi pilta chiroq vazifasini o‘tagan, ikkinchidan, idishda olov ta’sirida eritilgan dorivor modda saqlangan bo‘lishi mumkin. Yana bir jihati shundaki, idish ikki tomondan yaxshi sifatli qilib, silliqlangan (1-rasm.* 1). Bu turdagi miniatyur idishlar asosan Eylaton, Kuyuktepa, Mingtepa sopollar

majmuasida analogiyaga ega[3].

“Uchtepa-2” arxeologik yodgorligi sopollar majmuasidagi keyingi sopol parchasining gardish diametri 8 sm, saqlangan balandligi 3 sm, devorining qalinligi 0,5 smni tashkil qiladi. Idish kulolchilik charxida mahorat bilan ishlangan bo‘lib, ichki va tashqi tomondan qizg‘ish-qoramtir tusda angoblangan. Idishning ichki qismi chapdan o‘ngga qarab, tashqi tomoni esa o‘ngdan chapga qarab angoblangan. Idishni angoblash jarayonidagi mato izlari saqlangan. Idishning loyi yaxshi qorilgan, zich, jarangdor bo‘lib, ikki tomondan mahoratli usta tomonidan sayqallangan. Loyi zich bo‘lishiga qaramay singan kesmasida mayda g‘ovakchalar uchraydi (1-rasm. *2*). Bunday ko‘rinishdagi idishlarni Farg‘ona vodiysining Mingtepa[4] va Kuyultepa yodgorliklarida uchratish mumkin[5].

Yopiq turdagi kosalar. Uchtepa-2 yodgorligi quyi qatlam sopollar majmuasida yopiq turdagi idishlar ham uchratildi. Ushbu kompleksdagi idishlar asosan kosalardir. Quyida arxeologik qazuv natijasida aniqlangan kosalarning tavsifi va tahlili keltiriladi. Quyi qatlam sopollar kompleksida yopiq turdagi kosa aniqlangan bo‘lib, uning gardish diametri 14 sm, saqlangan balandligi 4 sm, devorining qalinligi 0,6 sm. Idish ichki tomondan to‘liq, tashqi tomondan lab qismidan bo‘yin qismigacha qizg‘ish jigarrang angob bilan qoplangan. Lekin idishning saqlangan parchasining qorin qismida pastga tomon angob berilmagan. Ko‘rinishidan idishning yuqori uchdan bir qismi angoblanib, pastga oqiziq tarzida tushirilgan. Idish ikki tomondan silliqlangan, loyi yaxshi qorilgan, zich, lekin loyi tarkibida ohak aralashmalari mavjud. Idishning singan qismi qirralari o‘tkir, jarangdor (1-rasm. *3*). Bu ko‘rinishdagi shakli bir xil idishlar analogiyalari Sultonobod[6], Mingtepa[7], Kuyultepa yodgorliklari sopollar majmuida ko‘p uchraydi[8].

Kompleksdagi keyingi idishning gardish diametri 16 sm, saqlangan balandligi 2,2 sm, devorining qalinligi 0,4-0,5 smni tashkil qiladi. Idish ikki tomondan silliqlanib, och jigarrang angob berilgan. Angobning sifatsizligidanmi yoki tashqi ta’sirmi angobning o‘chgan qismlari mavjud. Idish kulolchilik charxida yasalgan, loyi zich, singan qirralari o‘tkir, jarangdor. Loyi yaxshi qorilgan va zich bo‘lishiga qaramay idishning singan kesmasida mayda g‘ovakchalar uchraydi. Idish loyi tarkibiga ohak qo‘shilgan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas (1-rasm. *5*). Ushbu idishning analogiyalari Farg‘ona vodiysining antik davrga oid Simtepa, Sultonobod, Mingtepa, Axsikent va shu kabi yodgorliklari sopollar majmuida ko‘zga tashlanadi[9].

Ushbu sopol majmuasida ichki tomonga qayrilgan yopiq turdagi idishlar mavjud bo‘lib, ulardan birining gardish diametri 18 sm, devori qalinligi 0,5-0,7 sm hisoblanadi. Idish tashqi va ichki tomondan och jigarrang angob bilan qoplangan, har ikki tomondan silliqlangan, lekin tashqi ta’sir sababmi yoki boshqa holatdanmi, ichki tomondan berilgan angob ayrim yerlarda biroz o‘chib ketgan. Loyi yaxshi qorilgan, zich, singan qismi qirralari o‘tkir, jarangdor. Idish yuqori haroratda bir maromda pishirilgan. Yuqoridagi idishlar kabi ushbu idish parchasi devori kesmasining ayrim yerlarida juda kichik teshikchalar mavjud. Bu holat idish loyi tarkibiga ohak yoki o‘simlik qoldig‘i (somon) aralashmasi qo‘shilib qolganidan bo‘lishi mumkin (1-rasm. *8*). Ushbu idishga o‘xshashlari Farg‘ona vodiysining ko‘plab arxeologik yodgorliklarida keng tarqalgan. Jumladan, Eylaton, Simtepa va Axsikentning AK-1 hamda Mingtepa yodgorliklari sopollar majmuasida uchraydi[10]. Shuningdek, bu kabi idish Kuyultepa yodgorligining B-1 sopollar majmuasida ham mavjud[11].

Yodgorlikda uchratilgan antik davrga tegishli keyingi sopol bo‘lagining gardishi ichkariga qayrilgan bo‘lib, yopiq turdagi idishlar sirasiga kiradi. Ushbu idish ham kulolchilik charxida yasalgan. Idishga tashqi tomondan jigarrang tusdagi angob berilgan. Angob berish jarayonida idishning qayrilgan qismida angobning to‘liq qoplanmaganligini va mato izlarini kuzatish mumkin. Ichki qismiga qizg‘ish tusdagi angob berilgan bo‘lib, ichki qayrilish qismiga aylanasiga ikki parallel chiziq bilan bezak berilgan. Idishning gardish diametri 18 sm, saqlangan balandligi 4 sm, gardishi devorining qalinligi 0,8 sm, gardishning pastki qism devorining qalinligi esa 0,6 smni tashkil qiladi. Idishning loyi yaxshi qorilgan, zich, jarangdor, singan qismlari qirralari o‘tkir. Ushbu idishda ham singan kesmasi ko‘rilganda mayda g‘ovakchalar kuzatiladi (1-rasm. *9*). Idishning ichki qismida lab qismidan pastda qorin qismiga o‘tish yelkasida gorizontal ravishda bo‘rtma mavjud. Bunday ko‘rinishdagi idishlar vodiyning Eylaton, Sultonobod, Simtepa, Mingtepa, Kuyuktepa va shu kabi yodgorliklar sopollar majmuasida uchraydi[12].

Ushbu sopollar kompleksida uchraydigan yopiq turdagi qolgan kosa idishlar gardishi diametri asosan 16-26 sm atrofida bo‘lib, idishlar devorining qalinligi 0,4-0,8 sm oralig‘ida. Barcha idishlar kulolchilik charxida ishlangan, ichki va tashqi tomondan och jigarrang, to‘q jigarrang, och qizg‘ish, to‘q qizg‘ish angob bilan qoplangan. Idishlarning loyi yaxshi qorilgan, zich, singan qirralari o‘tkir, jarangdor, fikrimizcha idishlar loyi tarkibida o‘simlik aralashmasi mavjud (1-rasm. *4,6,7,10,11,12,13,14,15*). Sopollar kompleksidagi bu tipdagi idishlar analogiyasi Simtepa, Eylaton, Sultonobod, Mingtepa, Axsikent, Kuyultepa

yodgorligining B-1 sopollar kompleksida keng ko‘lamda uchraydi[13]. Shuningdek, bu kabi idishlar Sarvontepa[14], Kuyuktepa yodgorligining Kuyuk-1 sopollar kompleksida[15], Marg‘ilonsoy vohasidagi Qizlartepa[16], bundan tashqari Karkidon guruhi yodgorliklaridan 5a manzilgohi[17] sopollar kompleksida uchratiladi.

Xulosa. Uchtepa-2 arxeologik yodgorligidan olingan sopol buyumlar majmuasining stratigrafik, tipologik va qiyosiy tahlili ushbu manzilgohning Farg‘ona vodiysi antik davr madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yodgorlikning quyi qatlamlari miloddan avvalgi III–II asrlarga oid bo‘lib, aynan shu davrda hududning faol o‘zlashtirilganligi ilmiy jihatdan asoslandi. Quyi qatlamlardan aniqlangan sopol idishlarning yuqori sifatda kulolchilik charxida ishlanganligi, angob berish texnologiyasining mukammalligi hamda shakl va bezaklarining xilma-xilligi hududda rivojlangan kulolchilik an’analari mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ochiq va yopiq turdagi idishlarning tipologik jihatdan boyligi hamda ularning ishlab chiqarish texnologiyasidagi umumiyliklar Farg‘ona vodiysining boshqa yodgorliklari – Mingtepa, Sultonobod, Simtepa, Axsikent va Kuyultepa materiallari bilan yaqin aloqadorlikni ko‘rsatadi. Bu esa hududlar o‘rtasida nafaqat madaniy, balki iqtisodiy va texnologik aloqalar mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Shuningdek, sopol buyumlarning ayrim xususiyatlari, jumladan angob sifati, devor qalinligi va bezak elementlaridagi farqlar vaqt o‘tishi bilan kulolchilik an’analarida ma’lum darajada transformatsiya jarayonlari yuz berganligini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar antik davr oxirlarida tashqi etnomadaniy ta’sirlar, xususan ko‘chmanchi chorvador guruhlar kirib kelishi bilan izohlanadi. Umuman olganda, Uchtepa-2 yodgorligi materiallari asosida olib borilgan mazkur tadqiqot Farg‘ona vodiysining antik davr kulolchilik maktabi, uning rivojlanish bosqichlari hamda hududiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu natijalar kelgusida mintaqadagi boshqa arxeologik yodgorliklarni o‘rganish, ularning xronologiyasi va madaniy mansubligini yanada aniqlashtirish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

References

1. Истахрий. Китаб ал-Масалик вал-мамалик / Йўллар ва ўлкалар китоби. Хуросон ва Мовароуннаҳр. Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. Масъул муҳаррир т.ф.д., проф., академик Д. Ю. Юсупова. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 181–182.
2. A. Asqarov. O’zbek xalqining kelib chiqish tarixi-Toshkent. 2014. –B. 261.
3. Кудратов С.С. Поселения Левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.) // Дисс. … на соиск. учен. степ. канд. истор. наук. – Санкт-Петербург. 1992. – С. 207, 225, 230. Рис. 25. 5; Рис. 43. 9-10; Рис. 48. 1;
4. Матбабаев Б.Х., Чен Линг, Исамиддинов М.Х., Алохунов А., Абдулгазиева Б., Илясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследование в Узбекистане в 2012 году. Вып. 9. – Самарканд. 2013 – С. 95. Рис. 3. 1.
5. Исамиддинов М.Х., Матбабаев Б.Х., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куюлтепа Северной Ферганы // ИМКУ. Вып. 18. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 92. Рис. 1. А-2. 2.
6. Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Средняя Азия археология, история, культура / Материалы международной конференции, посвященной 50-летию научной деятельности Г.В.Шишкиной. – М. Гос. муз. Востока, 2000. – С. 14. Рис. 1. 11;
7. Матбабаев Б.Х., Чен Линг, Исамиддинов М.Х., Алохунов А., Абдулгазиева Б., Илясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследование в Узбекистане в 2012 году. Вып. 9. – Самарканд. 2013 – С. 95. Рис. 3. 6;
8. Исамиддинов М.Х., Матбабаев Б.Х., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куюлтепа Северной Ферганы // ИМКУ. Вып. 18. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 92. Рис. 1. Б-1. 1
9. Горбунова Н.Г., Козенкова В.И. Сым-тепе – поселение в Фергане // АСГЭ. Вып. 16. – Ленинград. Аврора, 1974. – С. 99. Рис. 6. 1; Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Средняя Азия археология, история, культура / Материалы международной конференции, посвященной 50-летию научной деятельности Г.В.Шишкиной. – М. Гос. муз. Востока, 2000. – С. 14. Рис. 1. 15; Матбабаев Б.Х., Чен Линг, Исамиддинов М.Х., Алохунов А., Абдулгазиева Б., Илясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследование в Узбекистане в 2012 году. Вып. 9. – Самарканд. 2013 – С. 95. Рис. 3. 4; Анарбаев А.А. Ахсикет столица древней Ферганы. – Ташкент. Tafakkur, 2013. – С. 371. Табл. I. 3.
10. Кудратов С.С. Поселения Левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.) // Дисс. … на соиск. учен. степ. канд. истор. наук. – Санкт-Петербург. 1992. – С. 223. Рис. 41. 5; Горбунова Н.Г., Козенкова В.И. Сым-тепе – поселение в Фергане // АСГЭ. Вып. 16. – Ленинград. Аврора, 1974. – С. 99. Рис. 6. 1; Анарбаев А.А. Ахсикет столица древней Ферганы. – Ташкент. Tafakkur, 2013. – С. 371. Табл. I. 3; Матбабаев Б.Х., Чен Линг, Исамиддинов М.Х., Алохунов А., Абдулгазиева Б., Илясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследование в Узбекистане в 2012 году. Вып. 9. – Самарканд. 2013 – С. 95. Рис. 3. 3, 7.
11. Исамиддинов М.Х., Матбабаев Б.Х., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куюлтепа северной Ферганы // ИМКУ. Вып. 18. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 92. Рис. 1. Б-1. 1.
12. Кудратов С.С. Поселения Левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.) // Дисс. … на соиск. учен. степ. канд. истор. наук. – Санкт-Петербург. 1992. – С. 229-230. Рис. 47. 1, Рис. 48. 8, 11; Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Средняя Азия археология, история, культура / Материалы международной конференции, посвященной 50-летию научной деятельности Г.В.Шишкиной. – М. Гос. муз. Востока, 2000. – С. 14. Рис. 1. 20; Горбунова Н.Г., Козенкова В.И. Сым-тепе – поселение в Фергане // АСГЭ. Вып. 16. – Ленинград. Аврора, 1974. – С. 101. Рис. 8. 8; Матбабаев Б.Х., Чен Линг, Исамиддинов М.Х., Алохунов А., Абдулгазиева Б., Илясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследование в Узбекистане в 2012 году. Вып. 9. – Самарканд. 2013 – С. 95. 6; Кудратов С.С. Поселения Левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.) // Дисс. … на соиск. учен. степ. канд. истор. наук. – Санкт-Петербург. 1992. – С. 190. Рис. 8. 1.

13. Горбунова Н.Г., Козенкова В.И. Сым-тепе – поселение в Фергане // АСГЭ. Вып. 16. – Ленинград. Аврора, 1974. – С. 99. Рис. 6. 1; Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Средняя Азия археология, история, культура / Материалы международной конференции, посвященной 50-летию научной деятельности Г.В.Шишкиной. – М. Гос. муз. Востока, 2000. – С. 14. Рис. 1. 15; Анарбаев А.А. Ахсикет столица древней Ферганы. – Ташкент. Tafakkur, 2013. – С. 371. Табл. I. 3; Матбабаев Б.Х., Чен Линг, Исамиддинов М.Х., Алохунов А., Абдулгазиева Б., Илясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследование в Узбекистане в 2012 году. Вып. 9. – Самарканд. 2013 – С. 95. Рис. 3. 3, 7.
14. Матбабаев Б.Х., Машрабов З.З. Древний и средневековый Андижан (историко-археологическое исследование). – Ташкент. Sharq, 2011. – С. 193. Рис. 25. 16.
15. Кудратов С.С. Поселения Левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.) // Дисс. … на соиск. учен. степ. канд. истор. наук. – Санкт-Петербург. 1992. – С. 229-230. Рис. 47. 1, Рис. 48. 8, 11.
16. Анарбаев А.А., Максудов Ф.А. Древний Маргилан (К истории земледельческой и городской культуры Ферганы). – Ташкент: Фан, 2007. – С. 57. Рис. 18. 6.
17. Горбунова Н.Г. Памятники Каркидонской группы в Южной Фергане // АСГЭ. Вып. 26. – Ленинград. Искусство, 1985. – С. 60

The Impact of Corporate Social Responsibility Strategies on Corporate Image and Sustainable Development

Saydullayev Chingiz Xamidullayevich
Tashkent Pedagogical and Science University
Tashkent, Uzbekistan
saydullayevc@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.68358/rfkbem43

Abstract. *This article analyzes the positive impact of corporate social responsibility (CSR) strategies on a company's image and sustainable development. It demonstrates that through CSR practices, companies can not only gain public reputation but also attract investment, manage risks, and ensure long-term stability. The article also provides examples from Uzbekistan's practice, supported by evidence from relevant Uzbek scientific and popular literature.*

Keywords: *corporate social responsibility (CSR), company image, sustainable development, investment attractiveness, investor trust*

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat strategiyalarining kompaniya imiji va barqaror rivojlanishiga ta'siri

Annotatsiya: *Ushbu maqola korporativ ijtimoiy mas'uliyat strategiyalarining (KIM) kompaniya imijiga va barqaror rivojlanishga bo'lgan ijobiy ta'sirlarini tahlil qiladi. KIM amaliyotlari orqali kompaniyalar nafaqat jamoatchilik oldida obro'ga ega bo'lish, balki investitsiyalarni jalb qilish, risklarni boshqarish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash imkoniga ega bo'lishlarini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada O'zbekistondagi amaliy misollar ham keltirilib, tegishli o'zbek ilmiy va ommaviy adabiyotlardan dalillar taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *Korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM),* **kompaniya imiji,** *barqaror rivojlanish,* **investitsion jozibadorlik,** *sarmoyador ishonchi*

Kirish. Korxonalar global jamoatchilik oldida mas'uliyatli pozitsiya egallashni asosiy strategiya sifatida qabul qilmoqda. KIM strategiyalari kompaniyaning xaridorlar, xodimlar, hamkorlar va investorlar oldidagi obro'sini mustahkamlashga yordam beradi. O'zbekistonda ham KIM prinsiplari e'tiborga olinmoqda — bu, bir tomondan, kompaniya imijini oshirsa, boshqa tomondan, barqaror va salohiyatli rivojlanishga hissa qo'shadi.

Tahlil va muhokama. 1. KIM va kompaniya imiji. KIM orqali kompaniya imijini shakllantirishda eng muhim usullardan biri — ijtimoiy foyda keltiruvchi loyihalardir. Masalan, Gazeta.uzda berilgan misolda Solo Eyewear kompaniyasi daromadining 10 %ini muhtoj insonlarga ko'rsatish va ekologik materiallardan foydalanish orqali ijobiy imij yaratadi. Bu yondashuv orqali biznes nafaqat obro', balki haqiqatan ham ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshiradi.

Wikipedia manbasiga ko'ra, CSR ("corporate social responsibility") brendni boshqalardan "farqlashtirish"da muhim rol o'ynaydi. KIM faoliyatini muhim marketing pozitsiyasi sifatida qo'llash kompaniyaga narx-farqlanishsiz ham mijozlarni jalb etish imkonini yaratadi.

2. KIM va investitsion jozibadorlik. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsion jamoatchilik kompaniyaning shaffofligi va ijtimoiy mas'uliyati darajasiga e'tibor beradi. KIM siyosati yuqori darajada shaffoflikni ta'minlab, investorlar uchun kompaniya haqida to'liq va ishonchli ma'lumot yetkazadi. Bunda, masalan, Boston Consulting Groupning so'rovlariga ko'ra, barqaror ko'rsatkichlar past bo'lgan kompaniyalarga investorlarning 44 %i sarmoya kiritmasligi, 60 %i esa sarmoyalarini qaytarib olishni istashini bildirgan.

3. KIM va barqaror rivojlanish. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi KIM bilan bog'liq: korxonalar ekologik va ijtimoiy masalalarga doimiy e'tibor bilan yondashishi lozim. Molina belgilaridan biri — KIM strategiyalari birdaniga emas, balki uzoq muddatli, aniq yo'l xaritalari asosida tashkil etilishi kerak. BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq o'quv tizimi yoshlarga "yashil ko'nikmalar"ni yetkazish orqali barqaror madaniyat yaratadi. ISO 26000 standarti esa ijtimoiy mas'uliyatni xalqaro baholash mezoni sifatida tavsiflanib, tashkilotlarga etik qoidalar, insonga hurmat, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi asosiy prinsiplarga rioya qilishda yo'l-yo'riq beradi. Bu kompaniyalarga barqaror rivojlanish yo'lidan borishda nazorat va strukturaga ega bo'lishda ko'mak beradi.

4. O'zbekistondagi amaliy tendensiyalar. O'zbekistonda ham KIM amaliyotiga oid tizimli yondashuvlar paydo bo'lishi ijobiy hol sifatida qayd etilgan. Kun.uz manbasida qayd etilishicha, O'zbekiston o'ziga xos KIM tamoyillarini ishlab chiqib, mahalliy investitsiya va jamiyat uchun

barkamol iqtisodiy va ekologik standartlarni takomillashtira oladi. Bu strategiyalar barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish borasida mahalliy biznesni rag‘batlantiradi.

Xulosa. Mazkur maqolada ko‘rsatildiki, KIM strategiyalari kompaniyaning imijini mustahkamlash, investorlarni jalb qilish, risklarni boshqarish va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan harakatlarni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir strategiya uzoq muddatga mo‘ljallanib, jamoatchilik, xodimlar va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. O‘zbekistonda ham KIM amaliyotining jadal rivojlanayotgani, barqarorlikka xizmat qilishi va investitsion muhitni yaxshilashi — ijobiy tendensiya sifatida baholanadi.

References

1. “Kompaniyaning qiymatini oshirish uchun tashkilotning imidjini yaxshilash”, Usmonova F.I., Ibragimov G.’G., Modern Education and Development, Vol. 16 No. 9 (2024), b. 183–188 (pp. 185) scientificjl.org.
2. “Korporativ ijtimoiy mas’uliyat — u qanday bo‘lishi kerak?”, Gazeta.uz (2021), b. taxminan 3–4 Gazeta.uz.
3. “KIM to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar sonining ko‘payishi garovimi?”, Review.uz, (sana ko‘rsatilmagan), b. taxminan 2–3 review.uz.
4. “Mas’uliyatli tadbirkorlikni rivojlantirishning afzalliklari”, Kun.uz, (2025), b. taxminan 2–3 Kun.uz.
5. “2024–2030 yillarda barqaror rivojlanish madaniyatini ilgari surish…”, Youthcan.uz, (2025), b. taxminan 4–5 youthcan.uz.
6. Tahliliy yondashuv: “Sustainable Business Models: A Review”, Arxiv (2019), b. taxminan 6–7 arxiv.org.

The Impact of Women's Participation in the Labor Market on Family Relationships

Rustamova Gulmira
Office Manager and Master's Student, Department of Archaeology and Ethnology
Faculty of History, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
rustamovag2811@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.68358/p28rcj91

The dialectical relationship between religion and society also gives rise to another important principle governing relations between religion and the state, namely the objective and scholarly study of developments in the religious sphere, the assessment and forecasting of emerging trends, the creation of broader opportunities for positive developments, and the prevention of negative phenomena on the basis of such analysis[L. Vasilev: 189].

At present, religious extremism, together with the closely related phenomenon of international terrorism, has emerged as one of the principal threats to social stability and public security. This reality clearly demonstrates the importance and practical relevance of this principle in contemporary society.

References

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Uzbekistan, 2003.
2. Nagel T. The Development of the Secular Enlightened State in Latin Europe. In: Islam and the Secular Enlightened State. – Tashkent, 2003. – P. 25.
3. Karimov I. The Peace and Security of Our Homeland Depend on Our Own Strength and the Unyielding Will of Our People. – Tashkent: Uzbekistan, 2004. – P. 8.
4. Karimov I. Uzbekistan on the Threshold of the Twenty First Century: Threats to Security Conditions for Stability and Guarantees of Development. – Tashkent: Uzbekistan, 1998. – P. 524.
5. High Respect and Reverence for Our Sacred Religion. International Imam al Bukhari Center. – Tashkent: Tashkent Islamic University, 2010. – P. 8.
6. Karimov I. Uzbekistan on the Threshold of the Twenty First Century: Threats to Security Conditions for Stability and Guarantees of Development. – Tashkent: Uzbekistan, 1998. – P. 60.
7. Saifnazarov I., Abidov A. Interfaith Harmony as a Factor of Social Stability. – Tashkent: National University of Uzbekistan for Innovative Development, 2019. – P. 142.

8. Hasanboev U. State and Religion Relations in Uzbekistan: Religious Organizations Religious Movements and Contemporary Directions of Ideological Struggle. – Tashkent: Tashkent Islamic University, 2014. – P. 27.
9. Vasilev L. Combating Terrorism in the Shanghai Cooperation Organization Area: A Monograph. – Moscow: Institute of Far Eastern Studies Russian Academy of Sciences, 2017. – P. 189.

Planning the Daily Training Process for Para Judo Athletes in Training Groups

Quvondiqov Mukhriddin
Guliston davlat universiteti
Syrdarya, Uzbekistan
muxriddinquvondiqov4@gmail.com

Abstract. This article examines the planning and organisation of daily training sessions for para judo athletes with visual impairments in training groups. It analyses the specific requirements of organising training sessions for athletes in the J1 and J2 sport classes, taking into account differences in visual ability and individual physical characteristics. Based on observations conducted at Specialised Boarding School No. 77 in Tashkent, the study describes methods for positioning athletes on the tatami, organising movement during the preparatory phase, and guiding exercises through verbal instructions from the coach. The article also addresses training duration, the distribution of physical workloads, the performance of technical and tactical exercises, and organisational measures aimed at reducing the risk of injury. The findings indicate the practical relevance of the proposed training arrangements for facilitating safe movement and the systematic organisation of daily training sessions.

Keywords: *para judo, J1 and J2 sport classes, daily training, training planning, visually impaired athletes, tatami, physical workload, technical and tactical training, movement organisation, injury prevention*

Paradzyudochilarning o‘quv mashg‘ulot guruhlarida kunlik mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko‘rish imkoniyati cheklangan paradzyudochilarning o‘quv-mashg‘ulot guruhlarida kunlik mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish va tashkil etish masalalari ko‘rib chiqiladi. J1 va J2 sport klasslariga mansub sportchilarning ko‘rish imkoniyatlari va individual jismoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Toshkent shahridagi 77-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatda olib borilgan kuzatuvlar asosida sportchilarni tatamida joylashtirish, tayyorgarlik bosqichida harakatlanish tartibini belgilash hamda murabbiyning ovozli ko‘rsatmalari yordamida mashqlarni boshqarish usullari yoritiladi. Shuningdek, mashg‘ulot davomiyligi, jismoniy yuklamalarni taqsimlash, texnik-taktik mashqlarni bajarish va jarohatlanish xavfini kamaytirishga qaratilgan tashkiliy choralar ko‘rib chiqiladi. Kuzatuvlar asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulot tartibining sportchilarning xavfsiz harakatlanishi va mashg‘ulot jarayonini izchil tashkil etishdagi amaliy ahamiyati ko‘rsatiladi.


Kalit so‘zlar: *paradzyudo, J1 va J2 sport klasslari, kunlik mashg‘ulot, mashg‘ulotlarni rejalashtirish, ko‘rish imkoniyati cheklangan sportchilar, tatami, jismoniy yuklama, texnik-taktik tayyorgarlik, harakatlanish tartibi, jarohatlanishning oldini olish*

Kirish. Bugungi kunda Paralimpiya yo‘nalishiga mamlakatimizda katta e’tibor berilmoqda. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan paralimpiya sport turlarida erishilgan natijalar bilan oddiy sportchilar erishgan natijalar bir xilda rag‘batlantirilmoqda. Bugungi kunda paradzyudo ham juda yaxshi rivojlangan. Maqolada paradzyudo mashg‘ulotlarini kunlik rejalashtirish holatini tartibga solish va aniq jadval asosida rejalashtirish ko‘zda tutiladi. Mashg‘ulotning qulay va tartibli bo‘lishi rejalashtirilib, harakat uslubi shakllantirildi.

Maqsad: Paradzyudochilarning o‘quv-mashg‘ulot guruhlarida kunlik mashg‘ulotlar jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish va paradzyudochilarga o‘z imkoniyatlariga moslab mashg‘ulot tashkillashtirish. Ko‘zi ojiz sportchilarni zalda mashg‘ulot jarayonida to‘g‘ri harakatlanish tartibini ishlab chiqish.

Asosiy qism. Paradzyudo dzyudoning ko‘zi ojiz sportchilarga moslashtirilgan turi bo‘lib, bunda dzyudo kurashidagi ba’zi qoidalar o‘zgartirilgan. Masalan, dzyudoda kurashchilar tatamiga (kurash gilamiga) chiqqanidan keyin hakamning “hajime” (kurash yoki jang) ishorasidan keyin kurashni erkin holatda boshlashadi. Paradzyudoda sportchilarning imkoniyati cheklanganligi va bu kasallik ko‘z bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda tatamida sportchilar bir-birlarini usulga olish uchun ushlash holatiga o‘tish holatlari murakkabligi hisobga olinib kurash ushlash holatidan boshlanadi, bu holat “kumi-kata” (“tutqich”, ya’ni ushlash holati) deb ataladi. Paradzyudoda sport klasslari “Xalqaro ko‘zi ojiz sportchilar” federatsiyasi tomonidan (IBSA) belgilanadi. Bugungi kunda 2022-yildan boshlab paradzyudoda J1 va J2 sport klasslari mavjud. J1 klassidagi sportchilar deyarli yoki umuman ko‘rishmaydi, binokulyar ko‘rishda (binokulyar ko‘rish — odamning bir vaqtning o‘zida ikki ko‘zi bilan qarashi) ko‘rish o‘tkirligi logMAR 2,6 dan kam yoki unga teng bo‘lishi kerak. J2 sportchining ko‘rish o‘tkirligi logMAR 1,3 va 2,5 oralig‘ida binokulyar ko‘rish yoki

binokulyar ko‘rish maydonining diametri 60 daraja yoki undan kam bo‘lishi kerak. J1 toifasidagi sportchilar endilikda faqatgina shu toifadagi sportchilar bilan bellashadilar, J2 toifasidagi sportchilar esa faqat J2 klassidagi sportchilar bilan bellashadilar. Ya’ni oddiy qilib aytganda ko‘rish qobiliyati deyarli mavjud bo‘lmagan sportchilar xira ko‘ruvchi sportchilar bilan bellashmaydilar. Bu esa o‘zaro kuchlar tengligini yuzaga keltiradi.



1-Rasm :1-holat bo‘yicha sportchilarni to‘g‘ri joylashishi, murabbiy joylashuvi.

Bugungi kunda paradzyudochilarning kunlik mashg‘ulotlarining har bir davlat yoki sport muassasasida ko‘p hollarda aynan dzyudo mashg‘ulotlari kabi tashkillashtirilganligini, bu tartibning aynan ko‘z kasalligi, ko‘rish bilan muammosi bor sportchilarga noqulaylik keltirib chiqarishi va ularning muammoli vaziyatlarga (harakat vaqtida muvozanatni yo‘qotish, to‘qnashuvlar) tushib qolishlarini ko‘rishimiz mumkin. Mashg‘ulotlar aynan dzyudo mashg‘ulotlariga mos ravishda shakllantiriladi, faqat sportchilarning ko‘rish qobiliyati hamda ko‘z kasalligi hisobga olinadi. Masalan, J2 toifasidagi sportchilarda nisbatan ko‘rish imkoniyati mavjudligi (xira ko‘rishi) sababli ular J1 toifali (ko‘rish juda past yoki umuman ko‘rish imkoniyatiga ega emas) sportchilarga nisbatan mashg‘ulotlarda faolroq bo‘lishadi. Mashg‘ulotlarda bu sportchilar orasidagi nisbiy farqni kamaytirish uchun ularni quyidagicha yo‘naltirish mumkin. Tayyorlov bosqichi: bu bosqichda tanani asosiy bosqichga tayyorlash, qizdirish mashg‘ulotlari bajariladi.


Asosan ko‘rik vazifasini bajaradi. Shu holatdan boshlab J1 va J2 klassidagi sportchilar murabbiy tomonidan rasmdagi holat bo‘yicha tartib bilan joylashtiriladi.

1-holat: Biz dastlab sportchilarimizni (paradzyudochilarni) 1-rasmdagi holat kabi saflantiramiz. Qisqa tekshiruv surishtiruv qilinadi (sportchilar ro‘yxati bo‘yicha to‘liq yoki to‘liqsizligini aniqlash, holatini savol-javob orqali sog‘lom ekanligini tekshirish).

– Sportchilar dzyudogini rusum bo‘yicha kiyganliklarini tekshiramiz.

– Sportchilar tatamida oyoqyalang turishlarini ta’minlash (paypoq yoki shunga o‘xshash oyoq panjalarini qoplab turuvchi vositalar yo‘qligini tekshirish). Jarohat davrini tugatgan sportchilarning barmoqlaridagi kichik jarohatlarni va oyoq to‘pig‘ini o‘rab turuvchi elastik bint va plastirlar bundan mustasno.

– Sportchilar gigiyenasiga e’tibor qaratish oyoq va qo‘l tirnoqlarining olinganligi.



2-Rasm: 2-holat tayorgarlik qismida harakatlanish (zal bo‘ylab) tartibi.

– Mashg‘ulot oldi kunlik reja va jarayon haqida qisqacha sportchilar bilan suhbat nazariy yondashuv (nazariy tushuntirish).

Bu holatda J2 klassidagi sportchilar imkoniyati nisbatan bu holatda ustunligi hisobga olinib zal maydonining tashqi qismidan harakatni amalga oshirishadi va J2 klassidagi sportchilar ularning dzyudogisining chap yon (dzyudogining tirsak, yelka qismidan) tarafidan ushlab harakat qilishadi. J2 klassidagi sportchilar o‘z navbatida yo‘naltiruvchi hisoblanadi. Murabbiy tatami markazida turib vaziyatni nazorat qilishi, sportchilar harakatini ovoz yordamida yo‘naltirishi kerak.

M — murabbiy.

3-rasm: 3-holat tatamida ketma-ketlikda bajariladigan maxsus mashqlarni bajarish holati. Sportchilarning klassiga qarab qulay harakat tartibi va yo‘nalishi. Murabbiy “qarsak” yordamida sportchilarni yo‘naltirishi mumkin yoki shunga o‘xshash ovozlar yoki so‘zlardan foydalanib sportchilarni to‘g‘ri yo‘naltirishi hamda harakatlarni tartibga solishi mumkin (ovozdan foydalanishda juda yuqori ovozdan foydalanish tavsiya etilmaydi). Kuzatuvlarimiz natijasida shu tartibdagi kunlik mashg‘ulotlar samarali deb topildi. 1-, 2-, 3-rasmlar bo‘yicha harakat tartiblari tajriba natijasida yuzaga keldi. Kuzatuv va tahlil Toshkent shahar Yashnobod tumani 77-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatida tashkillashtirilgan paradzyudo mashg‘ulotlarida samarali amalga oshirildi. 1-, 2-, 3-rasmlardagi holat kuzatish va tahlil metodi yordamida Toshkent shahridagi 77-ixtisoslashtirilgan ko‘zi ojizlar maktabida tashkil qilingan paradzyudo to‘garagini kuzatish va tahlil

qilish natijasida ishlab chiqildi, 1-jadval shu jadvalga moslab tuzildi. Rasmlardagi harakatlanish tartibida o‘tilgan mashg‘ulotlarda sportchilarda jarohat va jarohat olish xavfi kuzatilmadi.

Turli yoshdagi sportchilar tayyorgarlik tizimi tahlil qilinganda, saralangan ko‘rsatkichlar natijasi sportning har xil turlarida yuqori mutaxassislar yetishib chiqishini ko‘rsatdi. Ko‘pincha, bolalar va o‘smirlar maktabi bitiruvchilari, sport maktabi bitiruvchilari, sport maktablari sportning ko‘pgina turlarida yuqori natijalarni egallashda 1-razryad, sport ustasi va nomzod sportchilar hissalari juda katta. Paradzyudo mashqlarida sportchilar (o‘quvchilar)ning shikastlanish xavfining oldini olish uchun mashg‘ulotlar vaqti sog‘lom sportchilar mashg‘ulotlari vaqtiga nisbatan kam bo‘lishi kerak (60–80 daqiqa bo‘lishi tavsiya etiladi). Paradzyudochilar mashg‘ulotlar jarayonida uloqtirish va bo‘g‘ish usullari yoki boshqa og‘ritish usullaridan foydalanish tavsiya etilmaydi, nisbatan kam o‘rganiladi va qat’iy nazorat ostida nisbatan yengil o‘rganiladi. Agar paradzyudochilarda mashg‘ulotlar intensivligi yetarli bo‘lsa, sportchining sog‘lig‘iga salbiy ta’sir o‘tkazmasa, yuklamani bemalol oshirish mumkin.

Mashg‘ulotlarda boshlang‘ich holatda tatamiga kirish va chiqishda ta’zim “ree” ni o‘rgatish, zargarlik buyumlarini taqib mashg‘ulotlarda qatnashish taqiqlanadi, favqulodda chiqish eshigidan sportchilarni ogohlantirish, ichimlik suvi qayerda joylashganligini ko‘rsating, mashg‘ulot vaqtida ovqatlanish taqiqlanadi, haqoratli so‘zlar taqiqlanadi, har bir mashg‘ulotni murabbiyning o‘zi o‘rgatishi shart, mashg‘ulotda kamida 2 nafar sog‘lom va voyaga yetgan shaxs murabbiyga yordam berishi tavsiya etiladi, murabbiyning roziligisiz hech kim mashg‘ulotda shug‘ullanishi mumkin emas. Mashg‘ulotlar davomida tayyorlov qismida stretching mashg‘ulotlaridan ham foydalanish jarohat olish xavfini kamaytiradi.

Dastlab dzyudochilarga erkin turish holatini o‘rgatish eng muhim hisoblanib, J1 toifasidagi sportchilarda sinxron harakatlar, qadam tashlashdagi noto‘g‘ri harakatlar, usul bajarishdagi xatolar yuzaga kelishi mumkin. Buni to‘g‘rilash uchun har bir harakatni qismlarga bo‘lib o‘rgatish maqsadga muvofiq. Sportchilarga uloqtirish mashqlarini bajarishda to‘g‘ri pozitsiya tanlash juda muhim. Sportchilar xususiyatlarini hisobga olib kurashish jarayonida harakatlanishda raqibga ergashmaslikni o‘rgatish juda muhim. Bunday holatda usulga tushib qolish raqib yo‘naltirgan joyga yurmaslik orqali bartaraf qilinadi. Raqib bilan usul bajarishda raqib dzyudogisidan qo‘yib yubormaslik va raqibga orqa qilmaslikni o‘rgatish. Dzyudoda yurishning eng samarali usuli qadam tashlashda oyoqlarni bir-biridan oldinga tashlash hisoblanadi va bu dzyudo tilida “ayumi-ashi” deb ataladi. Qadam tashlash jarayonida oyoqlarni oddiy qadamdan farqli ravishda baland ko‘tarish tavsiya etiladi. Paradzyudochilar juftlikda mashqlarni amalga oshirishda yoki usul bajarishda dzyudogidan ushlashda bir qo‘li bilan yeng tirsak qismidan ikkinchi qo‘li bilan dzyudogining yoqa qismidan ushlaydi. Bu “kumi-kata” holati (asosan chap qo‘l yengdan, o‘ng qo‘l yoqadan) deb ataladi va bu ushlash usuli muvozanat saqlash uchun ham eng qulay hisoblanadi. Bu ushlash usuli mashg‘ulotda yaxshi samara beradi, lekin musobaqalarda g‘alabani ta’minlashi kafolatlanmagan. Paradzyudochilarga mashg‘ulot vaqtida dzyudogini ushlashda barmoqlarni to‘liq ochib kimonodan tutish tavsiya etiladi. Kimononi ushlashda qo‘lning pastki uchta barmog‘ini qattiqroq qisish orqali ushlash holatini mustahkamlash mumkin.

Sportchilarda texnik-taktik usullar bilan ishlash vaqti 20-30-40 daqiqa bo‘lishi tavsiya etiladi, sportchining individual holatini hisobga olib yuklama vaqtini shu 3 ta vaqt bo‘yicha belgilash maqsadga muvofiq. Mashg‘ulotlarni yakunlashda e’tibor beriladigan jihatlar. “Dzyudo mashg‘ulotlari juda katta jismoniy kuch sarflashni taqozo etishi mumkin va bo‘shashtiruvchi mashqlarni bajarish tana va ongni normal holatga keltirish uchun o‘zaro zarur hisoblanadi. Ular jadal mashg‘ulotlardan so‘ng kuzatiladigan holsizlanishning namoyon bo‘lishini kamaytiradi. Mashg‘ulot tugashidan oldin bir necha nafas mashqlarini bajarish ham maqsadga muvofiq”.

Xulosa: Paradzyudochilarga yuklamalar va kunlik mashg‘ulotlarda yuklama berishda ularning kasallik yoki nogironlik sababini hisobga olgan holda yuklamalarni taqsimlash. Ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib zalda mashg‘ulotni tashkillashtirishda to‘g‘ri yondashish (1-, 2-, 3-rasmlar). Ularni kuchli yuklamalarga majburlamaslik va murakkab xatti-harakatlarni talab qiluvchi mashqlarni talab qilmaslik. Bevosita jismoniy zo‘riqish ruhiy zo‘riqishga olib keladi va buning natijasida bolani sport turidan bezdiradi. Kunlik mashg‘ulotlarning yaxshi tashkil etilishi muvaffaqiyatli mikrotsikllarni yuzaga keltiradi.

References

1. “Adaptiv jismoniy tarbiyada nazorat turlari va sport klassifikatsiyasi” O‘quv uslubiy majmua Chirchiq-2021
2. “Sport pedagogik mahoratini oshirish. Dzyudo” A.J. Tangriyev
3. “Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” N.A. Tastanov Toshkent-2017
4. IBSA rasmiy sayti [https//ibsasport.org]

Digital History: Opportunities and Prospects of Modern Information Technologies in the Study of the History of Lebap Province

Merjen Seydullayeva
Second-Year Undergraduate Student in History, TIIAME National Research University
Tashkent, Uzbekistan
seydullayewamerjen81@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.68358/f8hkhs57

Abstract. The article examines the essence, principal components and scholarly significance of digital history for historical research. It discusses the digitization of historical sources, electronic archives and libraries, Big Data analysis, geographic information systems (GIS), cliometrics and public history. The historical and administrative development of the Lebap region, located in the middle course of the Amu Darya, is briefly outlined for the ancient, medieval, Soviet and post-independence periods. The author substantiates the research potential of digital technologies, including source digitization, GIS modelling, automated text analysis and remote sensing, for studying the history of the region.

Keywords: *digital history, Lebap, Amu Darya, Great Silk Road, digitization, GIS, Big Data, text mining, cliometrics, public history, remote sensing*

Raqamli tarix: Lebap viloyati tarixini o'rganishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari va istiqbollari

Annotatsiya. **Maqolada raqamli tarix (digital history) yo'nalishining mazmun-mohiyati, asosiy tarkibiy qismlari va tarix fani uchun ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy manbalarni raqamlashtirish, elektron arxiv va kutubxonalar, katta hajmli ma'lumotlar (Big Data) tahlili, geoaxborot tizimlari (GIS), kliometriya hamda tarixni ommalashtirish (Public History) masalalari yoritilgan. Shuningdek, Amudaryoning o'rta oqimida joylashgan Lebap hududining qadimgi, o'rta asrlar, sho'rolar va mustaqillik davridagi tarixiy-ma'muriy shakllanishi qisqacha tavsiflanadi. Muallif raqamli texnologiyalarni (manbalarni raqamlashtirish, GIS-modellashtirish, matnni avtomatik tahlil qilish, masofaviy zondlash) mintaqa tarixini tadqiq etishda qo'llashning ilmiy imkoniyatlarini asoslab beradi.**

Kalit so'zlar: *raqamli tarix, Lebap, Amudaryo, Buyuk Ipak yo'li, raqamlashtirish, GIS, Big Data, matnni qazib olish (text mining), kliometriya, Public History, masofaviy zondlash*

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi gumanitar fanlar, jumladan, tarixshunoslikning ham metodologik asoslari va tadqiqot amaliyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy tarix ilmi bilan zamonaviy raqamli vositalarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan «raqamli tarix» yo‘nalishi bugungi kunda tarixiy tadqiqotlarning mustaqil va tez rivojlanayotgan sohasiga aylandi (Cohen & Rosenzweig, 2005; Thomas, 2004). Bu yo‘nalish tarixiy manbalarni nafaqat saqlash, balki ularni sifat jihatidan yangi usullar bilan tahlil qilish imkonini ham beradi.

Mazkur yondashuv alohida hududlar tarixini, xususan, Lebap mintaqasi tarixini qayta ko‘rib chiqishda katta ahamiyat kasb etadi. Lebap tarixiga oid qo‘lyozmalar, arxiv hujjatlari va arxeologik hisobotlarni elektron shaklga o‘tkazish ularni tadqiqotchilar uchun masofadan turib ochiq foydalanishga yaroqli qiladi. Shu bois maqolaning **maqsadi** raqamli tarixning nazariy asoslarini ko‘rib chiqish va uning Lebap tarixini o‘rganishdagi amaliy imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

1. Raqamli tarix tushunchasi va uning asosiy yo‘nalishlari

Raqamli tarix — kompyuter, internet tarmog‘i va zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida o‘tmishni o‘rganish, tadqiq etish, raqamlashtirish va keng jamoatchilikka taqdim etish usuli sifatida ta’riflanadi (Oriens.uz; qarang: Cohen & Rosenzweig, 2005). Xorijiy tadqiqotlarda bu yo‘nalish raqamli gumanitar fanlarning (digital humanities) tarkibiy qismi sifatida qaraladi (Schreibman, Siemens & Unsworth, 2004).

Raqamli tarixning asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

• o‘tmishni raqamlashtirish** — arxiv hujjatlari, qo‘lyozmalar, fotosuratlar va moddiy madaniyat obyektlarini raqamli shaklga o‘tkazish;

• raqamli arxivlar va kutubxonalar** — ma’lumotlarga masofadan, tez va qulay kirishni ta’minlovchi elektron ma’lumotlar bazalari;

• interaktiv loyihalar** — 3D modellashtirish, virtual muzeylar, gigapiksel tasvirlar va 360 darajali virtual sayrlar yordamida tarixiy voqea va obyektlarni vizual tarzda tiklash.

2. Raqamli tarixning tarix fani uchun ahamiyati

2.1. Katta hajmli ma’lumotlarni (Big Data)

tahlil qilish. An’anaviy usulda tadqiqotchi o‘z faoliyati davomida cheklangan miqdordagi hujjatni o‘rgana olardi. Matnni raqamli tahlil qilish va sun’iy intellekt vositalari millionlab sahifalardan iborat arxiv fondlarini qisqa muddatda qayta ishlash, shaxs va joy nomlarini hamda umumiy tendensiyalarni aniqlash imkonini bermoqda (Graham, Milligan & Weingart, 2016; Moretti, 2013).

2.2. Tarixiy manbalarning saqlanishi va ulardan foydalanish imkoniyatining kengayishi. Qog‘oz va qadimiy qo‘lyozmalar vaqt o‘tishi bilan yemiriladi. Raqamlashtirish noyob manbalarning elektron nusxalarini yaratish orqali ularni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, dunyoning istalgan nuqtasidagi tadqiqotchi uzoq xorijiy arxivlarga (masalan, London yoki Parij) bormasdan, ular fondlaridagi hujjatlar bilan ishlash imkoniga ega bo‘ladi.

2.3. Tarixiy jarayonlarni vizuallashtirish. Raqamli xaritalar va geoaxborot tizimlari (GIS) ko‘chishlar, harbiy yurishlar va savdo yo‘llarini matn shaklida emas, balki dinamik xaritalarda tahlil qilish imkonini beradi (Knowles, 2002; Gregory & Ell, 2007).

2.4. Yangi tadqiqot usullarining shakllanishi. Kliometriya (tarixni matematik va statistik usullar bilan o‘rganish) hamda tarmoqlar tahlili kabi yo‘nalishlar aynan raqamli texnologiyalar rivoji tufayli yangi bosqichga ko‘tarildi (Gibbs & Owens, 2013).

2.5. Tarixni ommalashtirish (Public History). Raqamli tarix tarixiy bilimlarni tor ilmiy doiradan chiqarib, keng jamoatchilik uchun ochiq qiladi. Virtual muzeylar, 3D rekonstruksiyalar, tarixiy platformalar va interaktiv saytlar yosh avlodning tarixga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi (Weller, 2013).

3. Lebap hududining tarixiy-geografik tavsifi

Lebap viloyati (Turkmaniston) mamlakatning sharqiy qismida, Amudaryoning o‘rta oqimi qirg‘oqlarida joylashgan tarixiy va ma’muriy hududdir. «Lebap» atamasi forscha «lab-i ob» (daryo bo‘yi, daryo qirg‘og‘i) birikmasidan kelib chiqqan.

3.1. Qadimgi va o‘rta asrlar davri

Lebap hududi qadimdan Sharq va G‘arbni bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘lining muhim strategik tugunlaridan biri bo‘lgan. Mintaqadan o‘tgan karvonlar Amudaryodan kechib o‘tishda aynan shu hududdagi bekat va kechuvlardan foydalangan. Mintaqaning yirik shahar markazi o‘rta asr manbalarida Amul (Omuya) nomi bilan tilga olinadi; u hunarmandchilik, savdo va madaniyat markazi sifatida ma’lum bo‘lgan (Le Strange, 1905; Bartold, 1963). Keyinchalik hudud Buxoro amirligi va qisman Xiva xonligi tarkibida bo‘lgan. Mazkur shahar o‘rnida vujudga kelgan aholi punkti keyingi davrlarda Chorjoy (Chorjuy) nomi bilan mashhur bo‘ldi.

3.2. Sho‘rolar davri va ma’muriy shakllanish

Sovet davrida 1939-yil 20-noyabrda hudud rasman Chorjoy viloyati sifatida tashkil etildi. Viloyat 1963-yilda tugatilib, uning yerlari respublika bo‘ysunuvidagi hududga o‘tkazildi, biroq 1970-yil 14-dekabrda qayta tiklandi (Edgar, 2004).

3.3. Mustaqillik yillari

Turkmaniston mustaqillikka erishgach, 1992-yil may oyida viloyat rasman Lebap viloyati deb qayta nomlandi. Viloyat markazi Chorjoy shahri 1992–1999-yillarda Charjev (Chardjou) deb yuritilgan; 1999-yildan boshlab esa unga hozirgi Turkmenobod (Türkmenabat) nomi berildi.

3.4. Tarixiy va madaniy yodgorliklar

Lebap hududida uzoq o‘tmishdan guvohlik beruvchi ko‘plab yodgorliklar saqlanib qolgan:

• Dayahotin (Doya xotin) karvonsaroyi** — Ipak yo‘li yo‘nalishidagi yirik o‘rta asr karvon bekati, mintaqa me’morchiligining noyob namunasi;

• Ostonobobo maqbarasi** — mahalliy aholi va ziyoratchilar tashrif buyuradigan qadimiy me’moriy majmua;

• Sultonniyozbek qal’asi** — Amudaryo bo‘yida joylashgan, mudofaa va kuzatuv vazifasini o‘tagan istehkom;

• Ko‘hitang (Koytendag) «Dinozavrlar platosi»** — qadimgi dinozavrlarning toshga aylangan yuzlab izlari saqlangan noyob paleontologik hudud.

4. Raqamli tarix vositalarining Lebap tarixini o‘rganishdagi ahamiyati

Raqamli tarix Lebap tarixini tadqiq etishda yangi imkoniyatlar ochib, an’anaviy manbashunoslikni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtiradi. Hududning boy moddiy va nomoddiy madaniy merosi buni alohida dolzarb qiladi. Uning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat.

4.1. Manbalarni raqamlashtirish va saqlash. Lebap tarixiga oid arxiv hujjatlari, qadimiy qo‘lyozmalar va arxeologik topilmalar vaqt o‘tishi bilan eskirishi yoki shikastlanishi mumkin. Raqamlashtirish texnologiyalari noyob qo‘lyozma va hujjatlarning elektron nusxalarini (raqamli arxivini) yaratish, ularni metama’lumotlar bilan ta’minlash va tadqiqotchilar uchun ochiq qilish imkonini beradi.

4.2. GIS va tarixiy kartografiya. GIS — raqamli tarixning eng samarali vositalaridan biridir. Lebap hududining qadimgi va o‘rta asrlardagi holatini o‘rganishda u Amudaryo o‘zanining vaqt davomida o‘zgarishini hamda bu o‘zgarishlarning aholi joylashuvi, dehqonchilik va madaniyatga ta’sirini vizual modellashtirish

imkonini beradi (Gregory & Ell, 2007).

4.3. Katta hajmli ma’lumotlar tahlili. Lebap tarixiga oid ma’lumotlar nafaqat mahalliy arxivlarda, balki O‘zbekiston, Turkmaniston, Rossiya, Eron va Buyuk Britaniya arxivlarida ham tarqoq holda saqlanadi. Matnni kompyuter yordamida avtomatik tahlil qilish (text mining) tarixiy shaxslar, joy nomlari (toponimlar) va iqtisodiy aloqalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni qisqa vaqt ichida aniqlashga yordam beradi (Graham, Milligan & Weingart, 2016).

4.4. Arxeologik tadqiqotlarda yangi bosqich. Lebap hududidagi ko‘plab qadimgi manzilgohlar hali to‘liq qazib o‘rganilmagan. Sun’iy yo‘ldosh va dron tasvirlari yer ostida qolgan qadimiy inshootlar, sug‘orish tarmoqlari va boshqa obyektlar izlarini aniqlashni osonlashtiradi (Parcak, 2009). Bu qazish ishlarini taxminiy emas, balki aniq nuqtalarda, ilmiy asoslangan holda olib borish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari raqamli tarix zamonaviy tarixshunoslikda manbalarni saqlash, ularga ochiq kirishni ta’minlash va tahlil usullarini yangilashda muhim vosita ekanini ko‘rsatadi. Lebap hududi misolida bu yo‘nalishning quyidagi afzalliklari aniqlandi: (1) noyob manbalarning elektron arxivini yaratish; (2) GIS yordamida Amudaryo o‘zani va aholi joylashuvi dinamikasini modellashtirish; (3) turli mamlakatlar arxivlaridagi tarqoq ma’lumotlarni yagona tahlil muhitida birlashtirish; (4) masofaviy zondlash vositasida arxeologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish. Kelgusida Lebap tarixiga oid raqamli ma’lumotlar bazasi va interaktiv tarixiy xaritalar platformasini yaratish maqsadga muvofiq.

References

1. Bartold V. V. Turkestan v epokhu mongol'skogo nashestviya // Sochineniya. T. 1. — Moskva: Izd-vo vostochnoy literatury, 1963. (Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия.)
2. Cohen D. J., Rosenzweig R. Digital History: A Guide to Gathering, Preserving, and Presenting the Past on the Web. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2005.
3. Edgar A. L. Tribal Nation: The Making of Soviet Turkmenistan. — Princeton: Princeton University Press, 2004.
4. Gibbs F. W., Owens T. The Hermeneutics of Data and Historical Writing // Writing History in the Digital Age / Ed. by K. Nawrotzki, J. Dougherty. — Ann Arbor: University of Michigan Press, 2013.
5. Graham S., Milligan I., Weingart S. Exploring Big Historical Data: The Historian's Macroscope. — London: Imperial College Press, 2016.
6. Gregory I. N., Ell P. S. Historical GIS: Technologies, Methodologies and Scholarship. — Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
7. Knowles A. K. (Ed.). Past Time, Past Place: GIS for History. — Redlands: ESRI Press, 2002.
8. Le Strange G. The Lands of the Eastern Caliphate. — Cambridge: Cambridge University Press, 1905.
9. Moretti F. Distant Reading. — London: Verso, 2013.
10. Parcak S. H. Satellite Remote Sensing for Archaeology. — London: Routledge, 2009.
11. Schreibman S., Siemens R., Unsworth J. (Eds.). A Companion to Digital Humanities. — Oxford: Blackwell, 2004.
12. Thomas W. G. Computing and the Historical Imagination // A Companion to Digital Humanities / Ed. by S. Schreibman, R. Siemens, J. Unsworth. — Oxford: Blackwell, 2004. — P. 56–68.
13. Weller T. (Ed.). History in the Digital Age. — London: Routledge, 2013.
14. Oriens.uz — «Raqamli tarix» tushunchasiga oid elektron manba (original matnda keltirilgan; kirish sanasi va aniq havolani qo'shing).

The Role of Amir Timur's Spiritual Mentors in Establishing and Governing a Just State: The Case of Mir Sayyid Baraka

Safarov Abdulbosid
First-Year Master's Student at Andijan State University named after Zahiriddin Muhammad Babur
Andijan, Uzbekistan
ORCID: 0009-0002-0188-4154

DOI: https://doi.org/10.68358/f7vfje36

Abstract: *The relationship between Amir Temur and his mentor Mir Sayyid Baraka had a profound impact on the political, spiritual, and cultural development of Central Asia in the 14th-15th centuries. Sayyid Baraka's teachings shaped Amir Temur's governance style, ethical values, and patronage of culture.*

Keywords: *Amir Amir Temur, Mir Sayyid Baraka, mentorship, spiritual guidance, Timurid Empire, cultural renaissance*

Amir Temur pirlarini adolatli davlat qurilishi va boshqaruvidagi o'rni: Mir Sayyid Baraka misolida

Annotatsiya: *Amir Temur va uning murabbiyi Mir Sayyid Baraka o'rtasidagi munosabat markaziy Osiyoda XIV-XV asrlarda siyosiy, ruhiy va madaniy rivojlanishga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Sayyid Barakaning ta'limoti Amir Temurning boshqaruv uslubi, axloqiy qadriyatlari va madaniy homiylik faoliyatini shakllantirgan.*

Kalit so'zlar: *Amir Amir Temur, Mir Sayyid Baraka, murabbiylik, ruhiy yo'riqnoma, Amir Temuriylar imperiyasi, madaniy uyg'onish*

Insoniyat tarixida buyuk davlatlar, qudratli saltanatlar va ularning asoschilarini o'rganishda faqat harbiy yoki siyosiy jihatlar emas, balki ma'naviy-ruhiy manbalarni ham tahlil etish zarurdir. Ayniqsa, Amir Temur shaxsiyati bu borada o'ziga xos o'ringa ega. Uning davlat boshqaruvi, adolat tamoyillari va strategik qarashlarida sufiylik ta'siri, pir-murshidlar bilan aloqalari markaziy o'rin tutadi. "Pirsiz kirma jangohga hech dam, Iskandari zamon bo'lsang ham" degan hikmatli so'zlar Sohibqiron hayot falsafasining mohiyatini ifoda etadi: u har bir siyosiy va harbiy harakatni ruhiy tayyorgarlik, ma'naviy poklanish va pirlar duosiga tayanish orqali amalga oshirgan.

Amir Temurning hayoti va faoliyati ota-onasi, xususan, onasi **Takina xotun va otasi amir Tarag'oyning diniy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.1** Tarag'oybek o'z davrining obro'li beklaridan biri sifatida nafaqat siyosiy, balki diniy-axloqiy muhitda ham faol ishtirok etgan, ulamo va solihlar majlisida qatnashgan, ayniqsa Shayx Shamsiddin Kulolni o'zining pir-murshidi sifatida ehtirom qilgan. Shu asosda shakllangan ma'naviy muhit yosh Amir Temurning tafakkuri, e'tiqodi va hayot falsafasiga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Manbalarda Amir Temurning bir necha pirlar bilan aloqalari tilga olinadi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisi - tarixiy va ruhoniy jihatdan ulug' zotlar, masalan, Xoja Ahmad Yassaviy, Shayx Safiuddin Ardabiliy, Shayx Burhoniddin Sog'arjiy kabi allomalar; ikkinchisi esa, bevosita Sohibqiron zamondoshlari bo'lgan Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Zayniddin Toybodiy va Mirsaid Sayyid Baraka kabi pirlar.2 Aynan Mirsaid Sayyid Baraka bilan Sohibqironning munosabatlari Temuriylar davrida diniy rahnamolik va davlat boshqaruvi o'rtasidagi uyg'unlikning yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Amir Temur va uning ustozi Mir Sayyid Baraka o'rtasidagi munosabatlar Markaziy Osiyo tarixida XIV asr oxirlarida siyosiy va madaniy manzaraga chuqur ta'sir ko'rsatgan muhim hamkorlik hisoblanadi. Amir Temur kuchli zabt etuvchi sifatida paydo bo'lib, Temuriylar imperiyasini tashkil qilgan bo'lsa, Sayyid Baraka esa nufuzli islom olimi va ruhiy maslahatchi sifatida Amir Temurning boshqaruv falsafasi va axloqiy tamoyillarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan.3 Ularning aloqasi harbiy intilish va ruhiy yo'riqnoma o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni namoyon qilib, yetakchilikda murabbiylikning ahamiyatini ko'rsatadi.

Amir Temurning kuchli davlat qurish davri Mo'g'ul imperiyasining parchalanish davriga to'g'ri kelgan bo'lib, Sayyid Baraka ta'limotlari Amir Temurning boshqaruv yondashuvini shakllantirishda muhim bo'lgan, unda islomiy tamoyillarni Markaziy osiyolik an'anaviy amaliyotlar bilan uyg'unlashtirishga e'tibor qaratilgan. Ushbu uyg'unlashuv Amir Temurning hokimiyatini qonuniylashtiribgina qolmay, balki uning poytaxti Samarqandda madaniy uyg'onish davrini ham rag'batlantirgan, shahar islom ilmi va fors san'ati markaziga aylangan. Ushbu hamkorlik yangicha boshqaruv uslubi, me'moriy

ulug‘vorlik va san’atning gullab-yashnashiga zamin yaratib, Temuriylar Uyg‘onishi deb ataladigan inqilobiy davrni boshlab bergan.

Ularning munosabatlari shaxsiy jihatdan ham chuqur hurmatga asoslangan. Amir Temur Sayyid Barakani ruhiy yo‘lboshchi va murabbiy sifatida ko‘rib, tez-tez uning maslahatiga murojaat qilgan va Sayyid Barakaning islomiy qadriyatlarga sodiq yetakchi sifatidagi shaxsiyatiga ta’sirini e’tirof etgan. Amir Temurning vafotidan keyin Sayyid Baraka oyog‘i ostida dafn etilishni istashi, Sayyid Barakaning unga bo‘lgan chuqur ta’sirini ko‘rsatadi. **1403-yilda Sayyid Baraka vafotidan so‘ng, Amir Temur ustozi xotirasini ulug‘lash maqsadida maqbara bunyod etib,** Sayyid Barakaning o‘z hayoti va hukmronligida poydevor sifatida qolishini ta’minlagan.4

Ularning munosabatlari ko‘pincha madaniy va siyosiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi bilan e’zozlanadi, shuningdek, zabt va markazlashuv davrida boshqaruv murakkabliklarini ham ochib beradi. Ruhiy va siyosiy hokimiyatning birlashuvi qonuniylik va axloqiy yetakchilik masalalarini keltirib chiqargan bo‘lib, bu mavzular Markaziy Osiyo tarixida hokimiyat dinamikasini tushunishda olimlar tomonidan hali ham o‘rganilmoqda. Umuman olganda, Amir Temur va Mir Sayyid Baraka o‘rtasidagi hamkorlik, murabbiylikning yetakchilar va ularning imperiyalari rivojiga qanday o‘zgartirish kiritishi mumkinligini namoyon etadi.

Mir Sayyid Baraka Amir Temurning yoshligida muhim shaxs bo‘lib, kelajakdagi zabt etuvchining ruhiy va ma’naviy rivojlanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan.5 U murabbiy sifatida muhim rol o‘ynagan, diniy bilimlarni yetkazib bergan va Amir Temurning shakllanish davrida yo‘naltirgan. Sayyid Baraka orqali Amir Temur islomiy ilm bilan tanishganligi, uning yetakchilik uslubi va Markaziy Osiyoda hokimiyatga ko‘tarilishdagi intilishlarini shakllantirishga yordam bergan.

Mir Sayyid Barakaning erta hayoti nisbatan noaniq, lekin u mintaqaning nufuzli diniy olimi va ta’lim sohasida muhim shaxs sifatida tanilgan. Uning ta’limoti islomiy tamoyillarni chuqur tushunishga asoslangan bo‘lib, u Amir Temurni boshqaruv, axloq va ruhiy masalalarda o‘rgatgan. Ushbu murabbiylik Amir Temurning rivojlanishida muhim bo‘lgan, chunki Sayyid Baraka unga nafaqat diniy, balki amaliy yo‘riqnomalarni ham bergan va bu Amir Temurning keyingi siyosiy qarorlari va harakatlarining poydevorini tashkil qilgan.

Sayyid Baraka va boshqa nufuzli olimlar Amir Temurni islomiy ilmning boy merosi bilan tanishtirgan, jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy kabi mashhur olimlarning asarlari bilan. Ushbu ta’limotlar Amir Temurda islom madaniyatiga hurmat va boshqaruvda diniy qonuniylikning ahamiyatiga ishonchni shakllantirgan. Natijada, Amir Temur o‘z yurishlarini diniy kontekstda asoslash uchun ko‘pincha islomiy ramz va tilni ishlatgan, o‘zini “Islom qilichi” deb atab, harbiy kampaniyalarini diniy yo‘nalishda izohlashga intilgan.

Mir Sayyid Barakaning Amir Temurga ta’siri shaxsiy munosabatlar bilan cheklanmagan. Sayyid Barakaning huquqiy risolalarga va axloqiy boshqaruvga qo‘shgan hissasi Amir Temurning hukmronlik siyosati uchun asos bo‘lib, uning qarorlari va siyosatiga butun hukmronligi davomida ta’sir ko‘rsatgan. Amir Temurning Sayyid Barakaga bo‘lgan chuqur hurmatini olim vafotidan so‘ng uning sharafiga maqbara qurishi ko‘rsatgan, bu Sayyid Barakaning yosh yetakchi hayoti va intilishlariga qoldirgan uzoq davom etgan ta’sirini namoyon etadi.

Amir Temur, Markaziy Osiyoning mashhur zabt etuvchisi va Temuriylar imperiyasining asoschisi, ruhiy murabbiyi Mir Sayyid Baraka bilan chuqur va hurmatga asoslangan munosabatlarga ega bo‘lgan. Ushbu aloqani chuqur o‘zaro hurmat va sezilarli ruhiy yo‘riqnoma belgilagan bo‘lib, Amir Temurning hayoti va hukmronligida muhim rol o‘ynagan.

Termiz sayyidlaridan chiqqan Mir Sayyid Baraka nafaqat Amir Temurning murabbiyi, balki uning ma’naviy Amir Tarag‘ayning ruhiy maslahatchisi ham bo‘lgan.6 Amir Temur va Sayyid Baraka o‘rtasidagi bog‘liqlik shunchalik chuqur bo‘lganki, Amir Temur vafotidan so‘ng Sayyid Baraka oyog‘i ostida dafn etilishni istagan, bu esa murabbiyiga bo‘lgan yuqori hurmatini ko‘rsatadi. Sayyid Barakaning ta’siri shaxsiy murabbiylik bilan cheklanmagan; u keng qamrovli bilim va donoligi bilan mashhur bo‘lgan, arab va fors tillarida ko‘plab maktub va risolalar yozgan hamda ko‘plab insonlarga, jumladan Amir Temurga ruhiy yo‘riqnoma bergan.

Sayyid Barakaning Sayyid Barakasi Amir Temurning hokimiyatga ko‘tarilishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u Amir Temurning kelajakdagi podshoh sifatidagi taqdirini bashorat qilgan va uning harakatlarida ruhiy qo‘llab-quvvatlash bergan. Ushbu bashoratli rol Amir Temur uchun juda muhim bo‘lgan, chunki u harbiy yurishlari va davlat boshqaruvida ishonch va ilohiy tasdiqni ta’minlagan. Amir Temurning Sayyid Barakaga bo‘lgan hurmati uning vasiyatida ham ko‘rinib turibdi: u o‘z jasadini sevimli murabbiyi oyog‘i ostiga qo‘yishni buyurgan, bu esa hatto o‘limda ham ularning uzluksiz bog‘liqligini bildiradi.

1403-yilda Mir Sayyid Baraka vafotidan so‘ng, Amir Temur uni hurmat qilish maqsadida jasadini Samarqandga olib kelgan va dafn etish uchun maqbara bunyod etgan, shunday qilib Sayyid

Barakaning Amir Temur hayotidagi muhim shaxs sifatidagi merosini mustahkamlagan. Amir Temurning o‘zi qurdirgan maqbara Sayyid Barakaning maqbarasi yonida joylashgan bo‘lib, bu ikki shaxsning bog‘liq taqdirini va Sayyid Barakaning murabbiylik ta’sirining Amir Temur merosiga uzoq davom etgan ta’sirini ko‘rsatadi.

Amir Temur va uning ustozi Mir Sayyid Baraka o‘rtasidagi munosabat Amir Temurning shaxsiy va siyosiy hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan, uning boshqaruv va ruhiy yondashuvini shakllantirgan. Ushbu bog‘liqlik “nozik o‘zaro hurmat pardasi” bilan tavsiflangan bo‘lib, Amir Temurning qadriyatlari va yetakchilik uslubini rivojlantirishda muhim bo‘lgan. Ruhiy murabbiy sifatida Sayyid Baraka nafaqat diniy yo‘riqnoma bergan, balki Amir Temurning adolat va axloqiy yetakchilikka oid qarashlariga ham ta’sir qilgan, shariat qonunlari va maslahatchilar kengashi muhimligini boshqaruvda mustahkamlashga yordam bergan.

Mir Sayyid Barakaning ta’limoti Amir Temurning islomiy tamoyillarga sodiq yetakchi sifatidagi shaxsiyatini shakllantirishga yordam bergan. U yetakchilikda axloqiy harakat va hurmat hamda obro‘ni saqlash zarurligini ta’kidlagan, bu esa beqarorlik va tartibsizlik davrida muhim bo‘lgan. Ushbu munosabat Amir Temurni yangilanish va islohot yo‘lini tanlashga ilhomlantirgan, bu yo‘l avvalgi yetakchilar, masalan, Ubaydullohxon va Ahmad Donish kabi o‘z davrining mujaddidlari yoki yangilovchilari tomonidan bosib o‘tgan yo‘lga o‘xshash bo‘lgan.

Sayyid Barakaning ta’siri ruhiy ta’lim bilan cheklanmay, Amir Temurning hukmronligida amaliy natijalarga, xususan me’moriy va madaniy sohalarga ham ta’sir qilgan. Amir Temurning buyuk masjidlar, madrasalar va boshqa yirik inshootlarni qurish loyihalari, uning madaniy boy va barqaror jamiyat yaratishga bo‘lgan sodiqligini aks ettirgan. Amir Temur davrida Samarqandda musiqiy hayot va madaniy faoliyatning gullab-yashnashi qisman uning homiyligi va Sayyid Barakaning ta’limoti bilan targ‘ib qilingan barqarorlikka bog‘langan bo‘lib, bu badiiy ifoda va jamoaviy tadbirlarni rag‘batlantirgan.

Xulosa: Amir Temur va Mir Sayyid Baraka o‘rtasidagi munosabatning uzoq muddatli merosi Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy manzarasida ko‘rinadi. Sayyid Barakaning murabbiyligi Amir Temurning boshqaruvini shakllantiribgina qolmay, balki mintaqada uzoq muddatli madaniy uyg‘onishni ham rag‘batlantirgan. Amir Temurning Samarqand musiqiy madaniyatiga turli etnik an’analarni kiritishga bo‘lgan sa’y-harakatlari, uning ustozidan olgan inklyuziv va hurmatga asoslangan tamoyillarining namunasidir. Siyosiy va ruhiy sohalar o‘rtasidagi ushbu hamkorlik Amir Temur imperiyasining muvaffaqiyatini ta’minlagan va Markaziy Osiyo tarixida yetakchilik va murabbiylik dinamikasini o‘rganishda muhim nuqtai nazar bo‘lib qolmoqda.

References

1. Ali, Muhammad. Amir Temur solnomasi. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008, 5-bet.
2. Davron, Xurshid. “Amir Amir Temur pirlari.” Tafakkur, no. 1 (1994).
3. Allamuratov, Anvar. “Amir Temur's State and It’s Department.” Indonesian Journal of Public Administration Review 2, no. 1 (October 2024): 8. DOI:10.47134/par.v2i1.3244.
4. Muminov, A., Babadzhanov, B., & Pollock, S. (2001). Amîr Temur and Sayyid Baraka. Central Asiatic Journal, 45(1), 28-62.
5. Содиқов, Ҳ. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати: (тарихий бадиалар) [3 қисмли]. Тошкент: «ART FLEX», 2010-, 48-бет.
6. O‘RNI, RIVOJLANISHIDA TUTGAN. «AMIR TEMURNING MOVAROUNNAHR MADANIY-MA’RIFIY.» O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUDINING 688 YILLIGIGA BAG ‘ISHLANGAN (2024): 130.
7. Хамидова, Мухаббат. Temuriylar davrining Movarounnahrdagi me’moriy yodgorliklari tarixi. Тошкент: «Evrika Nashriyot-Matbaa Uyi», 2024, 65-бет.

The Jadid Movement and the National Awakening in Turkestan (Late 19th – Early 20th Centuries)

Maksadov Allanur

DOI: https://doi.org/10.68358/09m7fg43

Abstract. *This article examines the historical roots, social foundations and principal directions of Jadidism, the reformist movement that took shape in Russian Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries. It explores how the movement manifested itself in education, the press, literature, theatre and political activity under Russian colonial rule. The study employs historicist, comparative-analytical and problem-chronological approaches. The activity of the Jadids is interpreted not merely as a cultural and educational current but as a complex socio-political phenomenon that contributed to the emergence of national consciousness in the region. The article also considers the experience of the Turkestan Autonomy of 1917 and the consequences of Soviet repression directed against the Jadids.*

Keywords: *Jadidism, new-method school, Turkestan, national awakening, enlightenment, press, Mahmudkhoja Behbudi, Turkestan Autonomy, colonialism, repression*

Jadidchilik harakati va turkiston milliy uyg‘onishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida shakllangan jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari, ijtimoiy asoslari va asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida vujudga kelgan ushbu islohotchilik oqimining ta'lim, matbuot, adabiyot, teatr va siyosiy faoliyat sohalaridagi ko‘rinishlari yoritiladi. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy-tahliliy va muammoviy-xronologik yondashuvlardan foydalanildi. Jadidlar faoliyati faqat madaniy-ma'rifiy harakat sifatida emas, balki o‘lkada millat tushunchasining shakllanishiga xizmat qilgan murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida baholanadi. Maqolada shuningdek, 1917 yildagi Turkiston muxtoriyati tajribasi va sovet davrida jadidlarga nisbatan olib borilgan qatag‘on siyosatining oqibatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, usuli jadid, Turkiston, milliy uyg‘onish, ma'rifat, matbuot, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Turkiston muxtoriyati, mustamlakachilik, qatag‘on*

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida chuqur o‘zgarishlar davri bo‘ldi. 1865-yilda Toshkentning bosib olinishi, 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi, so‘ngra Qo‘qon xonligining tugatilishi (1876) hamda Buxoro amirligi (1868) va Xiva xonligining (1873) Rossiyaga qaram holatga tushishi mintaqaning siyosiy xaritasini tubdan o‘zgartirdi. Yangi sharoitda mahalliy aholi o‘z oldida bir vaqtning o‘zida ikki muammoni his qila boshladi: mustamlaka tuzumi bilan yuzma-yuz kelish va jamiyatning ichki sustligini yengish zaruriyati.

Ana shu muhitda jadidchilik (arabcha jadid* – «yangi») harakati vujudga keldi. Uning tarafdorlari an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilish, dunyoviy bilimlarni o‘qitish, matbuot va teatrni rivojlantirish, ayollar va yoshlar tarbiyasiga e’tibor berish orqali xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga chiqarishni maqsad qildilar. Harakat nomi «usuli jadid» (yangi usul) maktablaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu maktablar dastlab Qrim tatarlari ziyolisi Ismoilbek Gasprinskiy (Ismail Gasprinski) tomonidan joriy etilgan tovush usuliga asoslangan edi.

Jadidchilik mavzusi uzoq vaqt sovet tarixshunosligida «burjua-millatchilik» harakati sifatida baholanib, o‘rganishdan chetlashtirildi. Mustaqillik yillarida esa bu masala yangi ilmiy asosda tadqiq etila boshladi. Xorijiy tarixshunoslikda ham A. Xolid, E. Allvort, E. Karrer d’Anko kabi tadqiqotchilar mazkur harakatning Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rnini chuqur tahlil qilganlar.

Tadqiqotning maqsadi – jadidchilik harakatining paydo bo‘lish sabablari, asosiy yo‘nalishlari va tarixiy ahamiyatini yaxlit tizimda yoritishdir. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi** vazifalar belgilandi: (1) harakatning tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitlarini aniqlash; (2) ta’lim, matbuot va san’at sohalaridagi faoliyatni tahlil qilish; (3) jadidlarning siyosiy tajribasini baholash; (4) harakat taqdirini sovet davri kontekstida ko‘rib chiqish.

Metodologiya va manbalar

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, qiyosiy-tahliliy va muammoviy-xronologik tamoyillardan foydalanildi. Manbalar bazasini jadid ziyolilarining o‘z asarlari (Behbudiyning «Padarkush» dramasi, Fitratning publitsistik va badiiy asarlari), davriy matbuot materiallari hamda ushbu mavzuga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Tahlil jarayonida jadidchilikni yagona, bir xil harakat sifatida emas, balki turli qarashlar, avlodlar va yo‘nalishlarni

birlashtirgan ko‘p qirrali oqim sifatida ko‘rish tamoyiliga amal qilindi.

1. Jadidchilikning paydo bo‘lishi: tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlar

Jadidchilikning shakllanishiga bir nechta omil ta’sir ko‘rsatdi.

Birinchidan, mustamlaka siyosati. Rossiya ma’muriyati o‘lkani boshqarishda mahalliy diniy va ijtimoiy institutlarni saqlab qolishga intilgan bo‘lsa-da, iqtisodiy jihatdan Turkistonni xomashyo – ayniqsa paxta – yetkazib beruvchi mintaqaga aylantirdi. Temir yo‘llarning qurilishi (Zakaspiy temir yo‘li, keyinchalik Toshkent yo‘nalishi) savdo aloqalarini kuchaytirdi, shaharlarda yangi ijtimoiy qatlamlar – savdogarlar, kasb egalari, yangi turdagi ziyolilar paydo bo‘ldi.

